

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

IJTIMOIV FANLAR FAKUL'TETI

TARIX KAFEDRASI

TARIX FALSAFASI VA TARIX O'QITISH METODIKASI
fanidan

O'QUV-USLUBIV MAJMUA
3-kurs, kunduzgi ta'lim shakli uchun



Bilim sohasi:	200 000 – San'at va gumanitar soha
Ta'lim sohasi:	220 000 – Gumanitar fanlar
Ta'lim yo'nalishi:	60220300 – Tarix (jahon mamlakatlari tarixi)

Namangan – 2023

MUNDARIJA:

№	Bo'limlar	Betlar
1	Ma'ruza matni	- B. 3-32
2	Seminar mashg'ulotlari ro'yxati	- B. 33-35
3	Mustaqil ta'lim mashg'ulotlari	- B. 36-37
4	Glossariy	- B. 37-38
5	Ilovalar: <i>Namunaviy o'quv dasturi</i> <i>Ischi fan dasturi</i> <i>Tarqatma materiallar</i> <i>Testlar</i>	-B. 39-105 <i>-B. 39-58</i> <i>-B. 59-70</i> <i>-B. 71-73</i> <i>-B. 73-105</i>

Tarix o'qitish metodikasining predmeti, maqsadi va vazifalari

Reja:

1. Tarix fanini o'qitish va o'rganish zarurati hamda ahamiyati.
2. Tarix o'qitish metodikasi fanining predmeti va uning vazifalari.
3. Tarix o'qitish metodikasi fanining rivojlanish bosqichlari.
4. Tarix o'qitish metodikasi fanining asosiy tamoyillari.

Tarix o'qitish usullari mutaxassisi hisoblanmish professor P.V. Gora, tarix o'qitish metodikasi ilmiy pedagogik fan bo'lib, u o'quvchilarga tarixdan, huquqdan bilim berishga, ularni tarbiyalashda va kamol toptirishda muhim ahamiyat ega, deb hisoblaydi. Tarix o'qitish usullarining asosiy fan sifatida oliy o'quv yurtlaridagi tarix fakul'tetlarining o'quv rejasiga kiritilishi va uni o'rganishdan ko'zda tutilgan maqsad kelgusida o'qituvchi bo'lib etishadigan talabalarni maktabda tarix o'qitishning ilmiy asoslari bilan qurollantirishdan iborat.

Milliy istiqlol, milliy istiqlol g'oyasi tarix o'qitish metodikasining metodologik asosini tashkil etadi. Tarix o'qitish usullari o'zining mustaqil tekshirish predmetiga ega. Maktabda tarix fanining o'qitilishi va o'qitish jarayonining o'rganilishi tarix o'qitish metodikasining predmetini tashkil etadi. O'qitish jarayonining ob'ektiv suratda amal qilinadigan o'z qonuniyatlari bor. Ularni bilib olish va ta'lim-tarbiya jarayonida bu qonuniyatlarga amal qilish, ulardan oqilona foydalanish maktabda tarix o'qitishni ilmiy asosda olib borishning muhim shartidir. Oxirgi yillardagi siyosiy, iqtisodiy, o'quv va ilmiy o'zgarishlar tarix o'qitishni yanada takomillashtirib borish, zamon talabiga mos mutaxassislar tayyorlashni talab etmoqda.

Tarix o'qitish jarayonining tarkibiy qismlari (ya'ni, maqsadi, mazmuni, o'qitishning metod va usullari, natijalari) o'rtasidagi qonuniyatli aloqalar kuidagida namoyon bo'ladi: maktab tarix kursining maqsadi, ta'lim-tarbiya vazifalarining muvoffaqiyatli amalga oshirilishi o'qitishning mazmuniga, uning g'oyaviy-siyosiy va nazariy jihatdan pishiq bo'lishiga bog'liq bo'lganidek, o'quvchilarning tarix kursini o'zlashtirish darajasi ham o'z navbatida o'qitishning ilmiy asosda, maqsadga muvofiq tashkil qilishiga, o'qituvchining o'rganiladigan mavzuning maqsadi, ta'lim-tarbiya vazifalari va mazmuniga mos keladigan ta'lim shakllari, o'qitish metod va usullari hamda vositalardan qay darajada maqsadga muvofiq foydalana bilishiga bog'liqdir. Shuningdek, o'qitishning natijalari ham o'qituvchining o'qitishdan ko'zlagan maqsadni, uning ta'lim-tarbiyaviy vazifalarini belgilab olishga, kursning mazmuniga mos tarzda amalga oshirishga yordam beradigan metod va usullardan ilmiy asosda foydalana bilishga bog'liqdir. Tarix o'qitish jarayonining tarkibiy qismlari o'rtasidagi bu o'zaro dialektik bog'lanish natijasida ular bir-biriga uzluksiz ta'sir ko'rsatib boradi. Tarix o'qitishda ana shu qonuniyatlarga suyanmasdan, ularni e'tiborga olmasdan turib yaxshi natijaga erishib bo'lmaydi.

Tarix o'qitishning asosiy maqsadi o'qimishli, etuk, komil insonni tarbiyalashdan iboratdir. Bu maqsad bir butun, qator ta'lim-tarbiya vazifalaridan tashkil topadi; bosh vazifa bilan birga yoshlarni mehnatga layoqat, kamol ahloq,

vatanparvarlik, baynalminallik, huquqiy tarbiya, mafkuraga yot fundamentalizm va terorizmga murosasizlik, bilim hamda izlanuvchanlik kabi fazilatlarini rivojlantirish muhimdir.

Tarix o`qitish deganda, tarixiy material vositasida o`quvchilarga bilim berish, eng zarur jarayon-o`qituvchi va o`quvchilarning aqliy (ichki) hamda o`quv xarakatlari (tashqi) jarayoni tushuniladi.

Tarix kursining mazmuni, deganda tarix dasturida belgilab berilgan tarixiy bilimlar ko`lami, o`quv materiallari: uning asl mazmuni tarixiy faktlarni xolislik nuqtai nazaridan tahlil qilish asosida kelib chiqadigan xulosalar va umumlashtirishlar, o`quvchilarning tarixiy materiallarni o`zlashtirish va olgan bilimlaridan foydalana bilish sohasidagi o`quv usullari, ko`nikma va malakalari tizimi, shu jumladan, ularni ilmiy tadqiq qilish ishlarning eng oddiy shakllarini egallashlari ko`zda tutiladi.

Tarix o`qitish usullari yosh, yangi fan, lekin eng qadimgi davrlardan boshlab maktablari madrasalarda tarix fani ta`lim tarbiyada asosiy o`rin egallab kelgan. Ta`lim soxasida uyg`onish, temuriylar, shayboniylar davrlarida va ayniqsa, XIX asrda rivojlanish bosqichida bo`ldi. Chor Rossiyasining Turkistonni bosib olishidan so`ng general-leytenant N.O.Rozenbax (1884-1889) «rus-tuzem» maktablarini ochish loyixasini ishlab chiqdi. 1884-yili Toshkentda birinchi «rus-tuzem» maktabi ochildi. Asr oxiriga kelib ularning soni 100 ta dan oshib ketdi.

Shu paytlarda Rossiyaning o`zida tarix o`qitish soxasida muhim o`zgarishlar yuz bermoqda edi. 1874-yili gimnaziyaning o`quv rejasiga o`zgarishlar kiritilib, III-sinfidagi Qadimgi Sharq, Yunoniston va Rim tarixi o`rniga Rossiya tarixining hikoyalar kursi, IV sinfdagi Rossiya va umumiy tarix hikoyalar kursi o`rniga Qadimgi dunyo tarixining sistemali kursi, V-VI sinflarga Rossiya va umumiy tarixning XIX asr o`rtalarigacha bo`lgan sistemali kursi o`qitiladigan bo`ldi. O`sib kelayotgan inqilobiy vaziyat yoki marksistik g`oya va idealistik, deb tushuniladigan g`oya o`rtasidagi kurash tarix o`qitishda ham o`z aksini topa boshladi. Lekin shunday bo`lsada tarix o`qitishda rivojlanish sezildi. M. Gimnaziya o`qituvchisi K.A.Ivanov darsliklari faktlarning obrazli va asosli bayoni, muhim xujjatlar, rasmlar bilan boyigan edi. 1890-yilda tarix o`qitishga doir ko`pgina maqolalar chop etilgan «Vestnik vospitaniya» jurnali nashr etila boshlandi. Rossiyada ta`lim soxasida katta o`zgarishlar bo`layotgan bo`lsada Turkistondagi rus-tuzem maktablari O`rta Osiyolik musulmonlar extiyojini qondira olmas edi. «Rus-tuzem» maktablari mahalliy aholini ruslashtirish uchun bir qurol edi. XIX asrning ikkinchi yarmida Turkistonda yangi usul maktablarining vujudga kelishi muhim ahamiyatga ega bo`ldi. 1917-yil oktyabr to`ntarishidan keyin Turkiston butunlay Imperiyaning bir qismiga aylanar ekan ta`lim-tarbiya sohasidagi o`zgarishlardan ham chetda qolmadi. V.I.Lenin maorif sohasining vazifalari xaqida to`xtalar ekan: «... maorif ishining qo`yilishi proletariyatning o`z diktatura maqsadlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun... sinfiy kurash ruhi bilan sug`orilgan bo`lishi lozim» degan edi. Tarix o`qitish bol`shevistik yangi jamiyat uchun siyosatda muhim rol o`ynashi kerak edi. Shuning uchun N.K.Krupskaya, A.V.Lunacharskiy, M.N.Pokrovskiy kabi shaxslar boshchiligida, RSFSR xalq maorifi komissarligi etakchiligida yangi tizimni yaratish uchun bel

bog'landi. 1920-yil Tarix fanining birinchi dasturi qabul qilindi. Unda madaniyat tarixi, chet el va Rossiya tarixi, iqtisod tarixi va sotsializm tarixi kabilar o'rin olgan edi, ko'rinib turibdiki o'quvchilar kommunistik g'oyalar bilan sug'orilishi kerak edi. 1921-yili tarix kursi jamiyatshunoslik bilan almashtirildi. Tarix, siyosiy iqtisod, xuquq asoslari, jamiyatshunoslik tarkibiga kirishi kerak edi. Kurs 1,5-yil davomida II-III sinflarda o'qitilishi mo'ljallangan. 1925-, 1927-yillarda dasturga yana o'zgartirishlar kiritildi. 1930-yillarda maktablarda tarix o'qitishda yana o'zgarishlar boshlandi. 1934-yil 15-mayda VKP (b) MKning «SSSR maktablarida grajdanlar tarixining o'qitilishi to'g'risida»gi qaror qabul qilindi. Shunday qilib, IV-sinflarda SSSR tarixining qisqa kursi, V-VII-sinflarda qadimgi dunyo va o'rta asrlar, VIII-X sinflarda esa SSSR tarixi, yangi va eng yangi tarix kurslari o'qitila boshlandi. Shu boshlangan ish to 1991-yilgacha davom etdi. Tarix kitoblari qayta-qayta nashr etildi, lekin ularning mazmuni ijobiy tomonga o'zgarmadi. SSSR tarixi darsliklari ham jahon tarixi (umumiy tarix) darsliklari ham sinfiylik, sotsializmning kapitalizm ustidan g'alabasi, internatsiolizm deb atalgan aslida ruslashtirish siyosati va ateizm bilan sug'orildi. O'quvchilarni iloji boricha o'tmishga nafrat bilan boqishga o'rgatildi, faqatgina kommunistik g'oyalar uchun muhim bo'lgan qo'zg'olonlar, urushlar maqtaldi. Tarix o'qitishning xolislik, inson omili, ilmiy tamoillari buzildi.

Tarix o'qitishda eng muhim tamoil bu tarixiy ketmaketlik (xronologiya)dir. Buning buzilishini hech qachon kechirib bo'lmaydi. Tarixiy voqea-xodisalarning barchasi kunma-kun, yilma-yil, ketma-ketlikda bayon etilishi shart. Bu tamoil sho'rolar davrida ham buzilmadi.

Yana bir tamoil bu ilmiy xolislikdir. Buning ma'nosi shundaki, tarixiy voqealar kerakli manbalar orqali ilmiylik asosida yoritib berilishi kerak va bunda hech bir mafkura xizmati uchun yo'naltirmasligi kerak. Misol uchun, o'zbek davlatchiligi tarixi 2700-yillik tarixga ega. Birgina shu ma'lumotni berish uchun manbani o'rganish kerak, o'rganganda ham ilmiylik asosida. O'zbek davlatchiligi tarixining 2700-yillik tarixi xaqida biz eng avvalo «Avesto»dan bilib olishimiz mumkin va x.k. Bu ma'lumotning noto'g'ri bo'lmasligi uchun boshqa manbalar ham o'rganilmog'i zarur (davlatchilikka oid). Yana bir misol zardushtiylik vatan Turon ekanligi. Buni «Avesto»dan tashqari ko'pgina arxeologik manbalar ham isbotlaydi. Shu tariqa har bir tarixiy ma'lumot ilmiy xolislik asosida berilmog'i kerak. Sho'rolar davrida shu tamoil buzib ko'rsatildi. Ya'ni tarixiy ma'lumotlarni mafkuraga xizmat qildirish uchun sohtalashtirildi. M., 1898-yilgi Dukchi eshon qo'zg'oloni reaksion-diniy qo'zg'olon, deb nomlangan. Vaholanki, bu qo'zg'olon diniy belgilar bo'lsada rus bosqinchilariga qaratilgan milliy- ozodlik harakati edi. Yoki Turkiston muxtoriyati xaqidagi ma'lumotlar. 1918-yil noyabridagi bu voqeadada milliy davlat tarafdorlari bo'lmachilik (seperatistik), burjua-millatparastligida ayblandi. Yana bir misol «bosmachilik» harakati. Xullasi, tariximizda ko'pgina voqealar ilmiy asosga ega bo'lmagan holda xolislik tamoili buzib tasvirlangan. Vatanimiz tarixida milliy davlatchilik, o'zbek millatining shakllanishi, Temur, Turkiston muhtoriyati, «bosmachilik», «o'zbeklar ishi» kabi sahifalar borki bularning barida ilmiylik, xolislik buzilgan.

Inson omili tarix o`qilishining muhim tamoili sho`rolar davrida yagona kommunistik mafkura iskanjasidagi ta`lim, tarix o`qitish mazmunan sayozgina emas, egasiz, mavxum va zerikarli tafsilotga aylanib qoldi. Sho`rolar o`z mafkurasiga ko`ra jamoa (kollektiv) manfaatlarini shaxs manfaatlaridan hamisha ustun qo`yar edilar. Buning tub ma`nosi shunda edi-ki, shaxsni jamoa orqali idora qilish boshqaruvning oson usuli edi. Buyuk shaxslar, avlodlar tarixi ularning shon-shuxrati va jabr-jafolari xaqidagi yorqin xotiralar tarix darsliklarida o`z ifodasini topmadi. Tarix bilimlarining asosiy mazmuni ijtimoiy-iqtisodiy jarayon, sinfiy kurash davlatlar tarixi, inqiloblar, ommaviy xaarkatlar, tarixidan iborat bo`lib qoldi. Inson omili tamoilining buzilishi shaxs tarbiyasida qiyinchiliklarga olib keladi.

Milliylikka bir tomonlama yondashuv tarix o`qitish tamoilining buzilishidir. Sho`rolar davrida baynalminalchilik, milliylikka e`tibor, deb aytilsada aslida markaz tomonidan belgilanganidek, tarix o`qitishda ham milliylik tamoillari buzildi. «panturkkizm», «panislomizm», «milliy-burjuaziya» yoki «o`zbeklar ishi» nomli atamalarning o`zi ham buning yaqqol dalilidir.

Maktabda tarix o`qitish tamoillarining yana biri yoshlar ruhiyatini xisobga olishdir. 5-sinf tarix darsliklaridan to 11-sinf darsliklarigacha barchasi o`quvchilar yoshiga qarab yozilgan bo`lishi kerak. Kichik yoshdagi o`quvchilar kitoblari sodda tilda hikoya tarzida yozilgan bo`lib matn xarflari yirikligi yoki o`sha davrga oid rasmlarning, hikoyalar (asarlardan parchalar)ning ko`pligi bilan ajralib turishi kerak. Dars o`tish jarayonida ham mavzuni hikoya tarzida tushunarli qilib tushuntirib berish kerak bo`ladi. Yuqori sinflarda esa o`quvchilarni fikrlashga, mushoxada qilishga o`rgatiladi.

2. Tarix darsi, tuzilishi, uning turlari va zamonaviy talablar

Reja:

1. Tarix darsining o`quvchilarga bilim berish, ularni Vatanga muxabbat ruhida tarbiyalashdagi o`rni.
2. Tarix darslarining mohiyati, ta`lim jarayonini tashkil etish.
3. Tarix darslarining turlari.

Maktab tarix kursining maqsadi, ta`lim-tarbiyaviy vazifalari va mazmunini bilish uchun tarix o`qitishning ilmiy asoslarini egallab olishning o`zi kifoya qilmaydi. Tarix kursini o`qitish, uni o`quvchilarning o`rganishi darsda va darsdan tashqaridagi mashg`ulotlarda ham davom etadi. Maktabda ta`lim-tarbiya ishlarining asosiy tashkiliy shakli darsdir. Binobarin, tarix darsinig o`quvchilarga bilim berish, milliy istiqlol g`oyasi mafkurasida ruhida tarbiyalash va kamol topishidagi roli beqiyosdir. Zotan, tarix darslari tizimida har bir darsning tutgan o`rni va ahamiyatini to`g`ri belgilash, darsning ilmiyligi va g`oyaviyligini ta`minlash, bilish qonuniyatlari va maqsadga muvofiq o`quv formalari hamda o`quvchilarning o`quv ishini to`g`ri tashkil etishga yordam beradigan, unga mos pedagog jarayonini ilmiy asosda tashkil etish alohida ahamiyatga egadir.

Tarix darslari sistemasiga, xususan tarix darslarining u yoki bu turini

tanlashga tarix dasturi materiallarining g'oyaviy mazmuni, uning ta'lim-tarbiya vazifalari va sinf o'quvchilarining umumin tayyorgarligi asos qilib olinadi. Binobarin, tarix darslarining har xil turlaridan foydalanish zaruriyati tarix dasturi mazmunining boy va xilma-xilligidan hamda ta'lim qonuniyatlaridan kelib chiqadi. Tarix o'qitish metodikasi taraqqiyotining hozirgi bosichida nazariy tomondan asoslab berilgan, faol o'qituvchilar tajribasida sinab ko'rilgan tarix darslari tizimining xilma-xil turlaridan foydalanish, maktab tarix kursining ta'lim-tarbiya vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirishga yordam beradi.

Tarix darsi qator ta'limiy va tarbiyaviy masalalarni xal etishga qaratilganligi bilan harakterlanadi. Tarix darsida ta'lim-tarbiya vazifalarining ko'p qirraliligi, uni o'qitishda qo'llaniladigan ko'p xilli metodlar bilan harakterlanadi.

Har bir tarix darsining o'z mavzusi va o'z rejasiga ega bo'lishi aksiomadir. Bir necha darslarni birlashtirgan katta mavzular albatta alohida darslar mavzulariga bo'linmog'i shart. O'qituvchi hech vaqt darsni o'tgan mavzuning yakuni va yangi mavzuni boshlanishi sifatida o'tishga yo'l quymaslik kerak. Fikrimizcha bu talab nafaqat o'rta umumta'lim yoki maxsus yurti uchun bo'lmasdan ayniqsa hamma oliy o'quv yurtlari uchun ham ma'ruza va seminar mashg'ulotlari uchun bo'lgan asosiy shartlarning ajralmas kismini tashkil etmog'i darkor. Gap shundaki, tematik birlikning buzilishi darsning g'oyaviy yo'nalishini, talabalarni sinfda (auditoriya yoki laboratoriyada) olib boradigan mustaqil ishlarini, uy ishini bajarishni to'g'ri tashkil etishni izdan chiqaradi.

Darsning asosiy g'oyaviy mazmuni, uning ta'limiy va tarbiyaviy vazifalari dars jarayonida o'rganilayotgan tarixiy voqelikning mohiyati, qonuniyatlari, sababi, natijalari va ahamiyatining to'g'ri bayon qilishidagina to'la amalga oshishi mumkin.

Didaktikada darslarni klassifikatsiya qilish masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Ko'pgina metodik adabiyotlarida jumladan, I.N.Kazantsevning "Urok v Sovetskoy shkole" kitobida dars mavzularini klassifikatsiya qilishda ularni kirish darsi, yangi bilimlarni egallash darsi, takrorlash-umumlashtirish darsi va hisobga olish-tekshirish darsi kabi tiplarga ajratiladi.

S.V.Ivanov darslarni klassifikatsiyalashga darslarda foydalaniladigan metodik vositalarning xususiyatlarini va dars o'tishga eng ko'p ishlatiladigan metodik asos qilib olib ma'ruza-dars, kino-dars, o'quvchilar mustaqil ish olib boradigan dars tiplarini tavsiya etadi.

Dars tiplarini klassifikatsiya qilish masalasi tarix o'qitish metodikasiga doir adabiyotda ham turlicha hal qilingan. Masalan, V.N.Bernadskiy tarix darslarini tiplarga ajratishda bilimlarning asosiy manbaini va har qaysi darsda qo'llaniladigan etakchi metodni asos qilib olgan.

V.G.Kartsev tadqiqodida esa darslardagi o'quv faoliyatini etakchilik

xarakteri klassifikatsiya uchun asos kilib olinib, tarix darslari: yangi bilimlar berish darsiga, o`tilgan mavzularni takrorlash va umumlashtirish darsiga, o`quvchilar bilimini og`zaki yoki yozma tarzda tekshirish darsiga hamda aralash deb atalgan tiplarga bo`lingan.

M.A.Zinov`ev esa o`z tadqiqotida darsning ikki tipini-yangi mavzuni o`rganish darsi va takrorlash darsiga bo`ladi. P.S.Leybengrub ham tarix darslari klassifikatsiyasini ko`rsatishga harakat qilgan. Biroq muallif tarix darslari tiplari ustida fikr yuritar ekan, u o`z fikrini asosan, o`tgan darsni so`rash, yangi mavzuni o`rganish va mustaqamlashga yo`naltiradi.

Dars turlari klassifikatsiyasi xususida A.A.Vagin tomondan tavsiya etilgan variantlar birmuncha talabga muvofiqdir. U darslarni klassifikatsiyalashda darsning mohiyatini, o`rganiladigan mavzuning mazmunini, o`qitish jarayonining umumiy qonuniyatlarini va o`qituvchi hamda o`quvchilarning har qaysi kundalik darslaridagi faoliyatlari turlarini asos qilib olish kerak deb ko`rsatdi. Uning qayd qilishicha, masalan, 5 sinfdan o`qitish jarayonining hamma asosiy elementlarini o`z ichiga oluvchi dars, xikoya qilib berish shaklida bayon etiladigan dars, takrorlash darsi olib borilishi lozim. 6-7 sinflarda dars tiplari ko`proq bo`lishi, chunonchi,

- O`qitish jarayonining hamma asosiy elementlarini o`z ichiga oluvchi dars;
- Yangi materialni bayon qilish darsi (xikoya qilib berish, kino, ekskursiya);
- Kirish darsi;
- Xotima darsi;
- Taxlil qilish darsi;
- Yakunlovchi dars;
- Malakka va kunikmalar xosil qilish darsi;

Takrorlash-umumlashtirish darslari olib borilishi tavsiya etiladi. A. A. Vagin dars tiplari klassifikatsiyasi xususida fikr yuritar ekan, agarda boshlang`ich sinflarda o`qitish jarayonining hamma asosiy elementlarini o`z ichiga oluvchi dars ko`proq qo`llanilsa, yuqori sinflarga o`tib borish bilan tarix o`rganishda dars turlarida differentsatsiya katta o`rinni egallashi ya`ni yuqori sinflarga borganda tarix darsning unga yaqin turlari bo`lishi va ulardan quyidagicha variantlarni tavsiya etdi:

- Mavzuga kirish darsi;
- Yangi materialni bayon qilish darsi;
- Tahlil qilish darsi;
- Mavzuni yakunlovchi darsi;
- Takrorlash darsi;
- Umumlashtirish darsi;
- O`tgan mavzuni so`rash darsi;
- Malakka va ko`nikmalar xosil qilish darsi;

Bilimni qo'llash darsi;
O'qitish jarayonining hamma asosiy elementlarini o'z ichiga oluvchi dars;
A.A.Vagin tomonidan tavsiya etilgan dars tiplari klassifikatsiyasida inson va xuquq kursida keng qo'llanilayotgan dars turlari:

seminar mashg'ulotlari;

konferentsiyalar;

disputlar;

seminar-konferentsiyalarga ham taalukli ekanligi qayd etib o'tiladi.

Darxaqiqat 60-yillarning ikkinchi yarmidan e'tiboran nafaqat inson va jamiyat kursida balki qator maktablarda tarix kursidan olib borilayotgan fakul'tetiv kurslarda ham darsning ana shunday shakllaridan "samarali" foydalanilgan.

Dars jarayonida har bir mavzuning mazmuniga qarab bu talablar konsentratsiyasini amalga oshirib borish shubxasiz dars samaradorligini o'quvchilarda tafakkur etish qobiliyatlarini tizimli ravishda kamol topib borishida katta rol o'ynaydi.

3. Tarix o'qitishning metodlari va ularning klassifikatsiyasi

Reja:

1. Tarix o'qitish metodlarining klassifikatsiyasi.
2. Og'zaki bayon metodi.
3. Bodma matnlar ustida ishlash.
4. Ko'rgazmali ta'lim metodi.
5. Mustaqil ish. Sinf dan tashqari ishlash.

Metod yunoncha "metodos" so'zidan olingan bo'lib, izlanish, bilish yo'li, nazariya, ta'limot, biror narsaga yo'l ma'nosini anglatadi. Aniq vazifani echishga bo'ysundirilgan, borliqni amaliy yoki nazariy o'zlashtirish yo'llarining yigindisidir. Shuningdek, maqsadga erishishning aniq, qisqa va maqbul yo'li hisoblanadi. Metod-tarixiy tadqiqotlar jarayonida aniq maqsadga olib boruvchi usullar va jarayonlar yigindisidan iborat. O'qitish metodi esa ta'lim jarayonida o'kituvchi va o'quvchilarning ma'lum maqsadga erishishga qaratilgan birgalikdagi faoliyat usullari yoki ta'limda maqsadga erishish, masalalarni xal qilish yo'llari, usullari tushuniladi. O'qitish metodi tarkibida usullar alohida ajralib turadi.

Usul - metodning tarkibiy qismi, metodni amalga oshirishda bir martagina qo'llaniladigan va alohida qadam hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, o'qitish metodlari har ikkala faoliyatning, ya'ni o'qituvchi tomonidan o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, axloqiy jihatdan tarbiyalash, ularda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish hamda o'quvchilar tomonidan o'sha nazarda tutilgan ilmiy bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish faoliyatida qo'llaniladigan usullarni o'z ichiga oladi.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda o'qitish metodlariga katta ahamiyat beriladi. Didaktika bilan shugullanuvchilar metodni o'quv jarayonining o'zagi, k o'zlangan maqsad va pirovard natijani boglovchi vosita, deb izohlaydilar.

O`qitish metodlari murakkab muammo bo`lib, maktab oldiga qo`yilgan mas`uliyatli vazifalarning hal etilishi ko`p jihatdan uning to`g`ri hal qilinishga bog`liq. Biroq hozircha o`qitish metodikasining bu muhim muammosi hususan tarix o`qitish metodlari tizimi(tizimi) etarli darajada ishlab chiqilmagan. Metodik adabiyotda metodistlar tomonidan «Metod», «Metodik usullar» tushunchasi turlicha talqin etiladi.

Shu bilan birga maktab amaliyotida, ayniqsa keyingi yillarda o`quvchilarni tarix predmeti vositasida tarbiyalashga, uni o`qitishni ilmiy asosda olib borish ta`lim-tarbiya ishlari samaradorligini oshirish sohasida ko`pgina ilg`or tajribalar to`planadi va umumlashtiriladi.

O`qitish metodlarini ilmiy asosda klassifikatsiyalash masalasi pedagogika fanida o`qitishning turli bosqichlarida turlicha hal qilib qilindi. O`qitish metodlarini klassifikatsiyasiga ba`zan analiz va sintez, deduktsiya va induktsiya kabi mantiqiy operatsiyalar asos qilib olinib, o`qitish metodlari induktiv, analitik va boshqa mantiqiy usullar sifatida harekterlanadi.

O`qitish metodlarini ba`zan o`quvchilarning bilish faoliyati faollik darajasiga qarab turkumlash tavsiya qilinadi. Bu tarzda ajratish o`qitish metodlaridan ko`ra ko`proq o`qitishning umumiy harekterlariga ta`luqlidir.

Metodlarni quyidagi ikki katta yo`nalishga ajratish mumkin:

1. Bilish (anglash) manbaiga k o`ra: ogzaki, bosma matnlar bilan ishlash, kursatmali, amaliy metodlar;
2. Bilish (anglash) faoliyatining bosqichlariga k o`ra: illyustrativ tushuntirish, reproduktiv (tayyor bilim berish), muammoli, qisman izlanish, ilmiy-tadqiqotchilik.

XX asrning 60- yillarda tarix o`qitish metodlari va ularni turkumlash turlicha hal qilindi. Metodist A.I.Strajev «Tarix o`qitishning tashkil etilishi metodlari va vositalari tarix fanining ta`lim-tarbiya vazifalarini amalga oshirishga xizmat qiladi» deydi. Biroq u ham o`qitishning asosiy metodlarini tarixiy jarayonning o`zini o`rganish metodidan iborat qilib qo`yib, masalada noaniqlikka yo`l qo`yadi. A.I.Strajev quyidagi o`qitish metodlarini tavsiya etadi:

1. Tarixiy faktlarni o`rganish metodlari.
2. Xronologiyani o`rganish metodlari.
3. Mahalliy tarixiy voqealarni o`rganish metodlari.
4. Asosiy tarixiy tushunchalarni shakllantirish metodlari
5. Sabab-natija aloqalarni o`rganish metodlari.
6. Tarixiy jarayonning qonuniyatlarini ochib berish metodlari.

O`qitishning metod va usullarini tanlashda shuni nazarda tutmoq kerakki, o`quvchilar esda saqlab qolishi zarur bo`lgan bilimlarni shunchaki, bayon qilib qo`ya qolish bilan maqsadga erishib bo`lmaydi. O`qitish jarayonida o`quvchilarning bilim faoliyatini faollashtirish, ularni amaliy faoliyatga tayyorlash, o`rgatish ham lozim. Ularda mustaqil ijodiy izlanish, yangilikka intilishni kuchaytirish, hali jamiyatga ma`lum bo`lmagan bilish usullarini qidirib topish va amaliy faoliyatga joriy eta bilish qobiliyatini ham rivojlantirish kerak.

I.Ya.Lerner o`qitish metodlarini 5 guruhga bo`ladi:

1. Bayon metodi.
2. Reproduktiv metod.
3. Ilmiy-tadqiqot metodi.
4. Qisman izlanish yoki evristik metod.

O`qitishning birinchi va ikkinchi usulida o`quvchilar o`rganiladigan materialni puxta esda saqlab qolishlari va uni qayta so`zlab berishlari mumkin.

O`qitish metodlari va usullari xaqida tushuncha. O`qitish metodlariga ta`rif berilganda birinchi navbatda u o`qituvchining o`qitish va o`quvchilarning o`rganishi yoki bilish faoliyati usullaridan iborat ekanligini nazarda tutishi kerak. Xaqqiqatan ham, o`qituvchi ko`rgazmali vositalar yordamida so`zlab berish yoki qandaydir amaliy xarakterlarni ko`rsatish, ularni tushuntirib berish jarayonida o`zi faol fikrlash bilan birga, o`quvchilarning ham fikrlash faoliyatini aktivlashtiradi va o`quv materialining o`zlashtirilishiga rahbarlik qiladi, ularning bilim va malakalarini o`zlashtirib olishlariga yordam ko`rsatadi. Binobarin, o`qitish metodlariga o`qitish va o`rganish usullari va unga bog`liq o`qituvchi va o`quvchilarning tafakkur qilish faoliyati asos qilib olinadigan bo`lsa, uni quyidagicha ta`riflash mumkin.

O`qitish metodlari - o`qituvchilarning aktiv fikrlash asosida o`quvchilarni o`qitishga, o`qituvchi rahbarligida o`quvchilarning ilmiy bilimlarini maktab ta`limi metodlari tizimidan to`g`ri foydalanilgan taqdirdagina ta`lim-tarbiya ishlari sohasida yaxshi natijalarga erishish mumkin. Maktab ta`limi metodlari tizimi, deb eng muhim umumiy belgilari bilan o`qitish va o`rganish usullari, hamda o`qituvchi va o`quvchilarning tafakkur faoliyatidan iboratdir. Bir-biri bilan bog`langan o`qitish metodlarini quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

1. og`zaki ta`lim metodi.
2. bosma matnlar yordamida o`qitish metodi.
3. ko`rgazmali ta`lim.
4. ta`limning amaliy metodi.

Mazkur metodlar tizimi maktabdagi barcha o`quv predmetlarini o`qitishda qo`llanishi mumkin.

O`qitish usullari va o`quvchilarning o`rganish usullari turli shakllar bir-biri bilan qo`shilib o`qituvchi va o`quvchilar faol ishtirok etadigan ta`lim jarayonlar metodini tashkil etadi.

Metodik usullar tizimi. Ma`lumki, maktab tarix kursining mazmunini ayrim aniq va tipik voqealardan iborat faktlar tashkil etadi. Bu faktlar o`quvchilarga ijtimoiy xayotning barcha tomonlari, bu tomonlarning rivojlanishini va ular o`rtasidagi o`zaro aloqalar xaqida bilim beradi, ularning aqli, o`yi xayoli, sezgi va irodasiga ta`sir ko`rsatadi. Tarixiy faktorlarning xarakterli xususiyati shundaki, ularni bevosita xissiy tasavvurlar asosda o`rganib bo`lmaydi. Shuning uchun o`tmishga doir eng muhim faktorlarni obrazli tasavvur etishning ahamiyati g`oyatda kattadir. Obrazli tasavvurlar o`quvchilarning tarixiy voqalar xaqidagi faktorlarni jonli idrok etishlariga yordam beradi.

Maktab tarix kursi ta'lim tarbiyaviy jihatdan juda muhim bo'lgan keng va obrazli qilib yoritilgan. Faktorlardan tashqari, ular o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlashga yordam beradigan ma'lumotlar ham beriladi. Ular juda qisqa ba'zan spravka shaklida bo'lsada, tarixiy jarayonni bir butun yaxlit tasavvur etish, tushunchalar tizimini va ijtimoiy rivojlanishning qonuniyatlarini to'liq o'zlashtirishga yordam beradi. Shunday qilib o'quvchilar xotirasida saqlanib qolinishi kerak bo'lgan tarixiy materiallar tarixiy bo'limning ikkinchi muhim tarkibiy qismini tashkil etadi.

Tarix o'qitishning tajribasida tarixiy materiallarni puxta va mustahkam o'qilashtirishga yordam beradigan ko'pgina samarali usullar bor. Materialni bayon qilib borishda o'qituvchi va o'quvchilarning o'quv materialini yuzasidan og'zaki va yozma reja, voqealar qalendari va xronologik jadvallar tuzishlari, raqamlarni yozish, grafik yozuvlarini olib borishlari diagrammalar chizish, kontur xarita va daftarda yozuv-chizuv ishlarini olib borishlari shular jumlasidandir. Shuni aytish kerakki, obrazli tarixiy tasavvurlarni shakllantirish, tarixiy faktlar xronologiya va boshqalarni xotirada mustahkam saqlab qolish tarixni o'rganishning birinchi bosqichini tashkil etadi. Uning eng muhim ikkinchi bosqichi tarixiy tushunchalarni shakllantirishdir. Tarixiy tushunchalarni o'zlashtirish juda katta ta'lim va tarbiyaviy ahamiyatga ega. Tushunchalar o'quvchilarda keng dunyoqarashni shakllantirishga yordam beradi, ularni tafakkur faoliyatini, bilish malakalari va qobiliyatlarini o'stiradi. Tafakkur qilishning psixik jarayoniga suyanadigan bu usullar har qaysi tarix o'qitish metodiga metodik usullarning uchinchi guruxi bo'lib kirishi mumkin. Ular birinchi navbatda o'qituvchining tushuntirib berishi, muammoli bayoni, o'qituvchi rahbarligida o'quvchilarning tarixiy xujjatlarni tahlil qilishi mantiqiy vazifalarni echishi va evristik suhbatdan iboratdir.

Ta'lim-tarbiya jarayonida bu usullar va bilimlarning barchasi tarkibiy qismlari bir-biri bilan o'zaro bog'liq holda ishtirok etadi.

Ko'rsatmalilik deganda, avvalo o'qitish va o'rganishning ko'rgazmali usuli, o'qituvchi bayonining ko'rgazmali bo'lishi uning o'quvchilardagi tayyor obrazlarga suyana bilishi, o'quv materialini bayon qilish vaqtida ko'rgazmali qurollardan foydalanishning va ko'rgazmali qurollar vositasida o'quvchilarning bilish faoliyatini aktivlashtirish hamda ularning o'rganilayotgan tarixiy faktlarini voqea va hodisalarni aynan o'zini yoki ularning tasvirlarini ko'rish yordamida o'rganishlari tushuniladi.

Tarix o'qitish ko'rgazmali bo'lishining ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyati ham katta. Avvalo, ko'rgazmali qurollar o'quvchilarning bilim olishida muhim manba hisoblanadi. O'qituvchining bayoni har qancha to'liq bo'lganda ham o'quvchilarning voqealar to'g'risidagi tasavvurlari to'la bo'lmaydi. Masalan, XVII asr boshlarida Rossiyada qurilgan dengiz kemalarning tasviri yoki modellarni ko'rmasdan u kemalarni, o'sha vaqtdagi dengiz jangi manzarasini ham to'la, aniq va chuqur tasavvur qilib bo'lmaydi.

Ko'rsatmali tasvirlar tarixiy fakt va hodisalarning tashqi ko'rinishigina emas balki ularning ichki mohiyatini ham ochib berdi. Masalan, o'quvchilarga 1944-1945 yillarda sovet armiyasining Pol'sha, Bolgariya va Sharqiy Evropadagi boshqa xalqlar. Xitoy, Koreyadagi aholi tomonidan shodiyona kutib olishga doir gazeta-

jurnallardagi illyustratsiyalar ko`rsatilganida (sovet) xalqlari olib bergani urushning ozodlik harakteri yaqqolroq ko`rinadi va esda mahkamroq saqlanib qoladi.

Ko`rsatmali tasvirlar tarixiy tushunchalarning ma`nosini osonroq tushunib olishlariga yordam beradi.

Shu tariqa ko`rgazmalilikning ahamiyati tarixiy faktlarni, hodisalarni ko`rish organlari ishtirokida mushohada etish va ular xaqida aniq tasavvur hosil qilish bilan chegaralanmaydi. Murakkab tarixiy hodisalarni tushunganlarni tushunib olishni ham engillashtiradi, tarixni to`g`ri real tushunishga yordam beradi.

Shunday qilib ko`rgazmalilik metodi:

1. Tarixiy bilimlarning asosiy manbalaridan biri bo`lib xizmat qiladi.
2. O`quv materialining ta`lim-tarbiya vazifalarini muvaffiqiyatli amalga oshirishga yordam beradi.
3. O`qituvchi bayonining aniq, obrazli va emotsional bo`lishiga yordam beradi.
4. O`quvchilarning o`quv materialini o`rganishga qiziqishni oshiradi va ularning bilish faoliyatini aktivlashtiradi.
5. O`qituvchining bayonini va uning darsda qo`llangan boshqa o`quv usullarini o`quvchilarning tushunib olishini engillashtiradi.
6. O`quvchilarning fikrlash qobiliyatini oshiradi.

Ko`rsatmali qurollar o`zining mazmuni, tarixiy obrazlarning harakteri, ularni tayyorlash texnikasi va foydalanish usullariga qarab quyidagi turlarga bo`linadi:

1. Predmet ko`rgazmalilik; tarixiy yodgorliklar, esdalik joylari, arxitektura yodgorliklari, xo`jalikka doir va boshqa qurilishlar, mehnat qurollari, quro-yarog`lar, ro`zg`or buyumlari, shu jumladan arxeologik topilmalar.
2. Tasviriy ko`rgazmalar; o`qitishda foydalanish uchun ishlangan tarixiy kartinalar va albomlar, san`at asarlari, portretlar, rasmlar, fotosuratlar va fotokopiyalar, darsliklardagi illyustratsiyalar, diafilmlar va kinofilmlar, maketlar va mul`yajlar kiradi.
3. Shartli ko`rgazmali qurollar, tarixiy va kontur xaritalar, tarixiy atlaslar, sxemalar va grafika, diagramma va kartogrammalar applikatsiyalar va pedagogik rasmlar.

Predmet ko`rstmalilik ta`limda alohida ahamiyat kasb etadi. Fizika, ximiya yoki botanika o`qituvchilari o`rganilayotgan temalarni o`quvchilarga formula shakl va boshqalarda ko`rsatib tushuntirsalar tarix o`qituvchisi unday imkoniyatdan mahrumdir. Tarix o`qituvchisi o`quvchilarga ibtidoiy odamlar hayoti va faoliyatining aynan o`zini ko`rsatib berolmaydi faqat gapirib beradi, ko`rsatsa faqat ibtidoiy kishi ishlatgan qurollarni yashagan joylarni yoki aytaylik, feodallarning o`zaro urushlarini emas. Urushda ishlatilgan qurollarni va boshqa ba`zi buyumlarni, Suvorov boshliq askarlarning janglarda ko`rsatgan jasorati va qahramonliklarini emas, balki ular to`g`risida rassomlar chizgan ayrim rasm-kartinalarni ko`rsatishi mumkin xolos, lekin har holda kishilarning o`tmishdan qolgan bu yodgorliklar tarixiy voqealar to`g`risida real tasavvur qilishga so`zsiz yordam beradi.

Tasvirli ko`rgazmali qurollar maktab tajribasida hammadan ko`p qo`llaniladi. Tasvirli ko`rgazmalar bir necha xil bo`ladi:

- a) o'tmishdan qolgan tasviriy ko'rgazmalar;
- b) ilmiy jihatdan asoslab rekonstruktsiya qilinagan arxitektura
- v) rassomning ijodiy faoliyati bilan qilingan tasviriy ko'rgazmalar, tarixiy san'at asarlari maketlar, modellar va boshqalar.

Tarix o'qitishda qo'llaniladigan tasviriy ko'rgazmali vositalar ichida o'quv kartinalari muhim o'rin tutadi. Kartinalar o'rganilayotgan voqealar va hodisalar xaqida o'quvchilarda yorqin tasavvur hosil bo'lishiga yordam beradi. Tarixiy mavzularga oid kartinalar syudjeti va harkteriga qarab quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Voqelik kartinalari. Ularda muhim voqealar, ijtimoiy hayotdagi noyob faktlar, harbiy harakterlar va revolyutsion voqealar yoritiladi. Masalan, «Salamin jangi», «1905-yil 9-yanvar».

2. O'rganilayotgan davr uchun tipik bo'lgan voqealarni aks ettiruvchi kartinalar. Masalan, «Qadimgi Gretsiyada qul savdosi». Kartinaning bu turi katta bir voqeani yoki uning bir ko'rinishini o'rganish bilan bog'liq bo'lgan hamma savollarga javob beradi.

3. Qadimgi shaharlar, qurilishlar, arxitektura yodgorliklari yoki ularning ansambli tasvirlangan tarixiy kartinalar. Masalan, Qadimgi dunyo tarixi darsligida berilgan «Afina akropoli», «Moskvaning XVII asr oxiradagi ko'rinishi» va boshqalar.

4. Tarixiy portretlar. Ular ustida o'quvchilar mustaqil ish olib boradigan bo'lsa, ular tarixiy shahslarning hayoti va faoliyatini og'zaki yoki yozma ravishda hikoya qilib beradi.

Kartinalar bilan ishlab kartinalardan unumli foydalanishni, ularning o'qitishdagi roli va o'rnini yaxshi tushunib olinishiga bog'liq.

Kartinalar ko'rgazmali qurollarning hamma turlari singari o'quvchilar uchun aktiv bilim olish manbai bo'lib xizmat qiladi. Shunday qilib kartinalar:

1. o'quvchilarni yangi materialni aktiv o'zlashtirishga tayyorlaydi, oladigan bilimlarni manbai bo'lib xizmat qiladi.

2. tarixiy voqeaning «jonli idrok» etilishini, o'rganilayotgan materialning axloqiy ta'sirini oshiradi, aniq va tushunarli bo'lishini ta'minlaydi.

3. o'qituvchi bayonning ta'sirini kuchaytiradi.

Ilyustratsiyalar darslik mantni mazmunining tarkibiy qismini tashkil etadi. Ulardan darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda bilim manabi sifatida foydalaniladi.

O'qituvchi o'z bayonida boshqa manbalaridan foydalangani kabi illyustratsiyalardan ham keng foydalaniladi. Ilyustratsiyalarning sodda va murakkabligiga qarab o'qituvchi ularning mazmunini o'quvchilarga mufassal tushuntirib beradi, yoki qisqacha hikoya qilish bilan chegaralanadi. O'quvchilarni illyustratsiyalar ustida aktiv ishlay olishga, mazmunini mustaqil ravishda chaqib ola va so'zlab bera bilishga o'rgatish lozim.

Ilyustratsiyalar mazmunini murakkabligi, xarakteri o'quvchilarning tayyorgarligiga qarab suhbat yo'li bilan tahlil qilishi mumkin, o'qituvchi o'quvchilarga mustaqil tahlil qilishni topshirishi mumkin.

Ilyustrativ materiallar quyidagi turlarga bo'linadi:

1. O'tmishdagi buyum yodgorliklarning tasivri.

a) ayrim buyumlar yoki ularning parchalari, ro'zg'or ashyolari, urush qurollari, mehnat qurollari;

b) arxitektura yodgorliklari va san'at asarlari tasviri. Ular ichida buyum va me'morchilik yodgorliklarining tasvirlari asosiy o'rinni egallaydi. Bu gruppaga kirgan illyustatsiyalar juda ham turli-tuman bo'lib, ob'ektni tahlil qilishi, taqqoslash va tegishli xulosalar chiqarish uchungina xizmat qilmasdan o'quvchilarni estetik ruhda tarbiyalash va ularga emotsional ta'sir ko'rsatishning ham muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi.

2. Rassomlarning hayotdan olib yaratgan syudjetli asarlari.

3. Portretlar.

4. Karikaturalar. Ular asosan XIX-XX asr voqealariga doir bo'lib ko'proq yangi tarix darsliklarida beriladi. Karikaturalardan foydalanish tarixiy faktlarga, siyosiy arboblarga, ijtimoiy gruppalariga siyosiy xarakteristika berishga, ularga berilgan baholarni esa mustahkam saqlab qolishga yordam beradi, o'quvchilar ongiga, g'oyaviy-siyosiy tarbiyasiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Karikatura o'quvchilar oldida tarixiy shaxsning faoliyatini fosh etishning ajoyib vositasi bo'lib xizmat qiladi.

5. Xujjatlar, yozuvlar, xujjatli matnlar (toshga o'yilgan yozuvlar, nashr etilgan yozmalar, proklamatsiyalar) tasviri. Bu xildagi illyustratsiyalar o'quvchilarning davr ruxini tarixiy sharoitni yaxshiroq tushunib olishlariga yordam beradi.

6. Xujjatli fotosuratlar va voqea shoxidlari chizgan suratlari. Bu xildagi illyustratsiyalar asosan XIX-XX asr voqealariga doir bo'lib yuqori sinflarida foydalaniladi. Shunday qilib illyustratsiyalar bilim manbalaridan biri bo'lib, tarix darslarida o'qituvchi bayonini konkretlashtirishda uning g'oyaviy-siyosiy ta'sirini kuchaytirishda, o'quvchilar bilimini mustahkamlash va mavjud bilimlarni ishga solishda ko'rgazmali material sifatida ham xizmat qiladi.

Umumiy xaritalar. Obzor xaritalar. Tematik xaritalar.

Tarixiy voqea ma'lum bir vaqtda va ma'lum bir joyda sodir bo'ladi. O'quvchilarda voqea sodir bo'lgan joy xaqida tasavvur yaratish ta'limda muhim urin tutadi.

Tarixiy xarita bilan ishlash geografik muhitga xarakteristika berishning asosiy metodini tashkil etadi. Geografik muhit jamiyat rivojlanishining xaarkatlantiruvchi kuchi bo'lmasa-da tarixiy rivojlanishning tezlashishi yoki sekinlashishiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Xarita yordamida tarixiy voqealarning sabab-aloqalari ochib beriladi. Xarita darsining boshida o'rganilgan materialni taxlil qilish, umumlashtirish, tarixiy rivojlantirishning qonuniyatlarini ochib berishga yordam ko'rsatadi. Xarita bir qator tarixiy voqealar va hodisalarni natijalarini kuzatib o'rganishga imkon beradi.

Tarix o'qitish tajribasida tarixiy xaritalarning uch turidan foydalaniladi:

1. Umumiy xaritalar. Ular bir mamlakat yoki bir guruh mamlakatlardagi tarixiy voqealarni, ularning mavqeini, tarixiy rivojlantirishning ma'lum bosqichidagi ahvolni aks ettiradi. Masalan, «XVIII asrning choragida Rossiya imperiyasi», «1789 yilda Evropa» va boshqalar.

2. Obzor xaritalar. O`rganiladigan voqealar rivojlanishining izchilligini uzoq davr mobaynida xududning o`zgarganligini aks ettiradi. Masalan: «XIV-XVIII asrlardar Rus davlatining kengayishi», «Rim davlatining yuksalishi».

3. Tematik xaritalar. Ma`lum tarixiy voqealarga yoki tarixiy jarayonning ayrim tomonlariga bag`ishlanadi. Masalan: «1905-1907 yillardagi Rossiya revolyutsiyasi», «1925 yilda Germaniyada dehqonlar urushi».

Tematik xaritalarda ijtimoiy hayotga doir masalalar, chunonchi iqtisodiy masalaga, sotsial harakatlarga, sinfiy kurash yoki harbiy o`tmishga doir masalalar to`laroq yoritiladi.

4. Tarix darslarida ta`lim vositalaridan foydalanish.

Reja:

1. Tarix ta`limi vositalari klassifikatsiyasi
2. Ta`limning texnik vositalari.
3. Axborot - kommunikatsiya texnologiyalari vositalari va ularni ta`lim jarayonida qo`llash imkoniyatlari. Elektron darslik.

Darsda samaradorligini oshirish uchun avvalom bor, o`qituvchining mahorati va ijodkorligi muhim bo`lib, bunda o`qituvchi tomonidan darsning maqsadiga qarab turli vositalardan foydalanishi maqsadga muvofiq.

1. Ta`limning texnik vositalari - o`quv materialini ko`rgazmali namoyish etishga, uni tizimli etkazib berishga yordam beradi; o`quvchilarga o`quv materialini tushunishlariga va yaxshi eslab qolishlariga imkon beradi, o`quv materialini ko`rgazmali namoyish etishga, uni tizimli etkazib berishga yordam beradi; talabalarga o`quv materialini tushunishlariga va yaxshi eslab qolishlariga imkon beradi. Bularga misol qilib, diaproecktr, grafoproecktr, doska bloknot, doska stend, flipchart, videofil'mlar, yozuv taxtasi va hokazolarni olishimiz mumkin.

2. Yordamchi ta`lim vositalari - grafiklar, chizmalar, namunalar bo`lib, bularga quyidagilarni misol qilib olishimiz mumkin: model', mulyajlar, grafik, jadval, diagrammalar, namunalar, chizmalar, sxema va boshqalar.

3. O`quv - uslubiy materiallar - o`quv materiallari ya`ni, darslik, xrestomatiya va boshqa o`quv qo`llanmalar yordamida o`zlashtirilgan o`quv materiallarini mustahkamlash uchun mashhlar, yo`riqnoma, o`quv topshiriqlari yozilgan tar?atmalar. Bular talabalarning mustaqil ishlarini faollashtirishga yordm beradi. Misol uchun: Ish varaqasi, eslatma, nazorat varag'i va matnlar. Bular o`quvchilarning mustaqil ishlarini faollashtirishga yordam beradi. Dono xal?imizda "ming marta eshitgandan ko`ra bir marta ko`rgan yaxshi" degan naql bor. O`qituvchining faqatgina og`zaki bayon metodi yordamida dars tashkil etilsa o`quv materialini o`zlashtirish ko`rsatkichi 10% bo`lishi ehtimoldan yiroq emas. Bunday sharoitda dars o`tish samarasi past bo`ladi. Mashg`ulotlarda o`quv materialini ham ko`rgazmali shaklda taqdim etish, shu bilan birga o`quvchilarni amaliy ish jarayonini ham tashkil etilishi maqsadga muvofikdir.

*Tarix darslarida ta`limning texnika vositalaridan fodalani*sh darsning samadorligini oshiradi. Ta`limning texnika vositalari o`qitish va o`rganish sifatini ko`tarishga o`quvchilarning o`quv materilini qo`ziqib o`rganishga xizmat qiladi.

Tarix o`qitish tajribasiga ko`ra maktabda ta`limning quyidagi texnika vositalaridan foydalanilmoqdi.

1. Oddiy texnika qurilmalari. Xarita o`quv kartinalari ilinadigan, yog`ochdan yoki boshqa materialdan yasalgan siljiydigan oddiy qurilmala, ko`chma sinf doskasi, sinf devoriga ilinib ikki yoqlama ochiladigan doska.

2. Ovozli apparatlar. Proigrovatel` (plastinkalar qo`yib ovoz chiqaradigan asbob). Magnitafon, radiopriyomniklar. Maktab tajribasida plastinkalar va magnit lentalar yordamida shuningdek, radiopriyomniklar vositasida o`quvchilarni klassik va boshqa bastakorlarning asarlari bilan tanishtirish borgan sari keng quloch yoymoqda. Chunki, muzikali ijodiy asarlarga doir maktab kursining madaniy-tarixiy materialini plastinka va lenta yozuvlarisiz ko`rsatib bo`lmaydi. Masalan madaniyatga doir mavzularni o`tganda musiqa asarlarini eshitish darsni maroqli qiladi.

3. Har xil ko`rsatuv asboblari va qo`llanmalar ta`lim texnika vositalarinig uchinchi guruhini tashkil etadi. Ular epidiaskop, diapozitivlar, diafil`mlar va o`quv kinofil`mlaridan iborat.

Texnika vositalari bilan ta`minlangan xona asosan quyidagi talablarga javob berishi lozim.

a) xonani tezda qorong`ilashtirish va tezda yoritish mumkin bo`lsin;

b) qorong`i vaqtda ham o`quvchilarning yozuv-chizuv ishlarini olib borish, ekran tasvirini daftarga tushirishi, darslik matni bilan ishlashi uchun o`tirgan o`rinlari maxsus lampochlar bilan yoritiladi;

v) xonada juda katta doska bo`lishi kerakki, uning bir qismi yozish uchun bo`sh bo`lsin;

g) xarita va kartinalar ilinadigan maxsus moslama bo`lsin;

d) zarur texnika vositalari va ularni ko`rsatadigan apparatlar xonada mavjud bo`lishi bilan birga ular tuzuk, ishga yaroqli holda saqlansin;

e) o`quv kinofil`mlari ham ta`limning ko`rgazmali vositalari jumlasidandir.

Kinofil`m o`quvchilar ko`z o`ngida tarixiy voqeaning jonli obrazning ko`rgazmali qilib to`liq harakatda gavdalantiradi.

Tarixiy mavzularga bag`ishlangan badiiy fil`mlar (masalan «Muz jangi»...) o`zini mazmuni va tarixiy voqealarni jonli qilib ko`rsatish jihatidan tarixiy badiiy asarlarga o`xshab ketadi.

Kinofil`mlar, aniqsa, badiiy fil`mlar o`quvchilarga emotsional ta`sir ko`rsatish, estetik va ahloqiy tarbiya berish vositasi hamdir. Kinofil`mlar bilim olish vaqtini iqtisod qilishga yordam beradi.

O`quvchilar oddiy shiroitda o`qituvchining bayonidan muzey va har xil tarixiy joylarga sayoxatlarda bo`lib soatlar sarf qilib oladigan bilimlarini 10-15 daqiqalik fil`mlarini ko`rib olishlari mumkin.

Xozirgi vaqtda tarix va jamiatshunoslik o`qitishda teleeshittirishning ikki turidan foydalanilmoqda: a) sinfda qabul qilish uchun beriladigan ertalabki ko`rsatuvlar, b) o`qishdan tashqari vaqtlardagi teleko`rsatuvlar o`quvchilar bu eshittirishlarni uyda tomosha qiladi.

Uquv teleko`rsatuvlarni qabul qilish uchun maktabda oynalarni parta bilan berkitilgan ikkita televezorli maxsus o`rgatish apparatlari muxayyo bo`lgan sinf xonasi bo`lishi zarur. Darsda uquv teleko`rsatuvlarning ikki xil turi qabul qilinadi.

a) 15 daqiqalik teleko`rsatuv.

b) 30-40 minut davom etadigan yangi materiallarni bayon qilishga bag`ishlangan tematik teledars yoki takrorlash darsi.

Teleko`rsatuvga yirik olimlarini yozuvchilar tajribali uqituvchilar yuristlarni hamda tarixiy voqealarning ishtirokchilarini jalb etish uquv materiallarini o`rganishning samaradorligini oshiradi.

Uqituvchi teleeshittirishni qabul qilishga puxta tayyorgarlik ko`radi. Uqituvchilarning teleko`rsatuvlar mazmunini puxta o`zlashtirib olishlari uchun uqituvchi ularga eshittirish mazmuni yuzasidan savollar beradi. Yoki boshqa vazifalar beradi. Natijada o`quvchilar ko`rsatishni faol fikrlab o`zlashtiradilar. O`qituvchi teledarsni qabul qilishni suxbat bilan yakunlaydi. Shunday qilib teleekran tarix o`qitishda ko`rsatkichlarning samaradorligini yanada oshirib yubordi. Tarix o`qitish tajribasi teledars g`oyaviy tarbiyaviy va didaktik jihatdan boshqa ko`rgazmali vositalardan ko`ra xiyla afzal ekanligini isbotladi.

5. Tarixiy bilimlarni shakllantirish jarayoni va tarix darslarini samaradorligini oshirish yo`llari

Reja:

1. Tarixiy bilimlarni shakllantirishda faktlarning va tarixiy tushunchalarning o`rni.
2. Tarix darslari samaradorligini oshirishning ilmiy - uslubiy asoslari.
3. Tarix darslarini samaradorligini oshirish yo`llari.
4. Tarix o`ituvchisining tarix o`sitishdagi o`rni.

6. Tarix darslarida tarixiy manbalardan, badiiy va boshqa adabiyotlardan foydalanish

Reja:

1. Tarix o`qitishda tarixiy manbalarning ahamiyati.
2. Tarixiy xujjatlar ustida ishlash.
3. Badiiy adabiyotlardan foydalanish.

Tarixiy xujjatlar tarix fani uchun muhim manbalardan biri hisoblanadi. O`zbekistonda tarix o`qitishida xujjatlardan foydalanish tarixi Rossiya bilan bog`liq XIX asrning 60-yillarida Stasyulevich va boshqa ilg`or o`qituvchi hamda metodistlar o`tishni tarixiy xujjatlar asosida mustaqil o`rganishning real metodini taklif etib, uni o`sha vaqtdagi darsliklar asosida o`qitish usuliga qarama-qarshi qo`ydilar.

XX asr boshlariga kelib tarixiy xujjatlarni mustaqil o`rganish g`oyasini metodist N. Rojkov davom ettirib tarixni manbalar asosida o`rganishning «laboratoriya» metodini olg`a surdi. Bu mavjud reaksion mazmundagi darsliklarni

yodlashtirish tizimiga nisbatan progressiv ahamiyatga ega. Lekin bu metodning ham o'ziga yarasha kamchiliklari bor edi. M., Bu o'quvchilarning mustaqil o'rganishiga ortiqcha baho berish edi. Bu kamchilik 1917-yilgi Oktyabr to'ntarishidan so'ng ta'lim tizimida ham ko'rishdi (yoki sho'rolar davrida individualizmga e'tibor berilmagan).

1934-yildan keyin sho'ro tarixchi metodist olimlari xujjatlar bilan ishlashni o'qitishning bosh metodi ekanligini inkor qilish bilan birga o'qitishning usullaridan biri ekanligini ta'kidladilar.

Tarixiy xujjat avvalo, o'qituvchi bayonini konkretlashtirish, chuqurlashtirish, va unga Aniqlik kiritish uchun xizmat qiladi, bayonning emotsional va ishonchli bo'lishi ta'minlaydi, tarixiy voqealarni gavdalashtirish va tasvirlashga yordam beradi. Xujjat ustida ishlash o'quvchilarni faktlar va xodisalarni mustaqil ravishda aniqlash va o'rganish, xulosalar chiqarishga o'rgatadi. Shu bilan birga xujjat ma'lum bir vaziyatni aniqlashga, uning xarakterini, ahamiyatini bilib olishga, tarixiy xolislik asosida tushunishga yordam beradi, ular (o'quvchilar)ning bilish faoliyatini, fikrlashini aktivlashtiradi.

Xujjatlar ustida ishlashning yana bir muhim tamoni shundaki o'quvchilarni tarixiy tadqiqot metodlarining elementlari bilan tanishtiradi hamda ularni tarixiy xujjatlarga tanqidiy arashga o'rgatadi.

Maktabda ta'limning yangi mazmuni amalga oshirishi munosabati bilan tarix o'qitishda tarixiy xujjatlarning roli yanada oshdi. Yangi dasturda yozilgan darsliklar mazmunining asosiy qismini tashkil etadi. Darslikdagi tarixiy xujjatlar har bir sinfdagi o'quvchilarning yoshi bilim saviyasi, o'sha sinfda o'rganiladigan tarix kursining xususiyatlariga qarab kiritilgan. Shu sababli darsliklardagi tarixiy xujjatlar o'zlarining xarakteri, ko'lami, mazmuni jihatidan bir-biridan farq qiladi. M., VI-sinf jahon tarixiga kiritilgan xujjatli manbalar III guruhga bo'linadi:

1. Moddiy madaniyat buyumlari- bizgacha saqlanib kelayotgan yoki ilmiy asosda qayta tiklangan burungi mehnat qurollari, qurol-yaroqlar, zeb-ziynat buyumlari, uy- ro'zg'or anjomlari, turor- joylar, qo'rg'onlar maqbaralar, qadimgi shahar harobalari va boshqalar.

2. Tasviriy san'at asarlari- moddiy voqelikni, odamlar va ularning bir-biriga munosabatini, odamlar va ularni bir-biriga munosabatini hamda ularni tevarak atrofidagi narsalarni, har- xil buyumlarni, geografik muhitni bevosita tasvirlab beruvchi asarlar, odamlarning xar xil xudolar, ruh-arvohlar, jinlar, alvastilar, afsonaviy qahramonlar, devlar va hakovolar haqidagi xayoliy tasavvurlarni aks ettiruvchi asarlar.

3. Yozma manbalar-qonuniyatlar, lik ishlariga doir yozuvlar, shartnomalar xizmat vazifasiga oid yozishmalar, siyosiy nutqlar, sud xukmlari, yilnomalar xronikalar, memuarlar, shahar va mamlakatlar tasvirlab yozilgan asarlar, xatlar va yozuvlar kiradi.

O'quvchilarning yoshiga qarab darslikdagi xujjatli materialllarning xarakteri o'zgarib, ko'lami ortib, murakkablashib boradi. Sho'rolar davrida tarixiy

xujjatlardan foydalanishda marksistik-leninistik ruxdagi xujjatlar juda ko'p ishlatilgan. Aslida yong'i bosqichga (yuqori sinfga) o'tgach darsliklarda hikoya va tasviriy xarakterdagi xujjatlarning salmog'i kamayib xo'jalik va yuridik xarakterdagi xujjatlarning salmog'i ko'paytiriladi.

Maktablarda tarix o'qitish tajribasida tarixiy xujjatlar bilan ishlashning asosiy ikki usuli mavjud tarixiy xujjatlardan o'qituvchi bayonida foydalanish va o'quvchilarning matn ustida ishlashi.

Tarixiy xujjatlar ustida ishlashning turli usullari mavjud.

1. O'qituvchi tarixiy xujjatni o'zi tahlil qilib berish mumkin.
2. Tarixiy xujjatlarni o'qituvchining bevosita rahbarligida o'quvchilar darsda tahlil qilishi mumkin.
3. O'qituvchi o'quvchilarga ma'lum xujjatlarni uyda mustaqil tahlil qilib kelishini topshirishi mumkin.

Tushunish kiyin bo'lgan murakkab tarixiy xujjatlarni o'qituvchining o'zi o'qiydi, tahlil qilib izohlab beradi. O'quvchilar matnini kuzatib borishadi va o'qituvchi tushuntirishlarini diqqat bilan kuzatib tinglaydi.

VI-VII sinflarda o'qituvchi xujjatlarni o'zi o'qib taxlil qilib beradi, ammo shu bilan birga o'quvchilarni xujjatlar bilan ishlashga ham o'rgatadi. Yuqori sinf o'quvchilarini ko'proq memuar xarakterdagi materiallar, tarixiy voqealarning zamonoshlari va ishtirokchilari bergan ma'lumotlar qiziqtiradi. Yuqori sinflarda o'quvchilarning mustaqil ishlashga talab ortib boradi. Shu sababli ular tarixiy xujjatlar asosida o'quvchilar qisqacha axborot, referat, hikoyalar insho va boshqa grafik ishlarni bajarishlari mumkin bo'ladi. Bu ular uchun mustaqil ijodiy ish bo'ladi.

Badiiy adabiyotlardan foydalanish. Badiiy adabiyot o'quvchilarni tarixiy o'tmish bilan tanishtirishning muhim manbalaridan biridir. Maktab tajribasida badiiy adabiyotdan darsda, sinfdan tashqari foydalaniladi va o'quvchilarga mustaqil o'qishga tavsiya etiladi. Badiiy adabiyot obrazlaridan foydalanish o'qituvchi bayonining ko'rgazmaliligini ta'minlaydi uni konkretlashtiradi, o'quvchilar o'tmish haqida jonli tasavvur xosil iladi. Badiiy adabiyotning roli bu bilan tugamaydi.

Ma'lum davrning ijtimoiy xodisalarini real aks ettiruvchi xaqiqiy badiiy obraz, tipik obrazlar o'sha ijtimoiy xodisaning mohiyatini ifodalaydi.

O'qituvchi bayonida badiiy adabiyotdan olingan namunalar bayonniig emotsional bo'lishini ham ta'minlaydi, o'rganilayotgan tarixiy voqealarga nisbatan o'quvchilarda xayrixohlik, zavqlanish, afsuslanish kayfiyatlarini, nafrat yoki hayrat tug'diradi, ular ongida insonparvarlik tamoillarini shakllantirishda ham muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Tarix o'qitishda foydalaniladigan badiiy adabiyotlarni ikki guruhga bo'lish mumkin:

1. O'rganilayotgan davrning adabiy yodgorliklari.
2. Tarixiy belletristik asarlar.

O'rganilayotgan davrning adabiy yodgorliklariga tarixiy hodisa va voqealarni o'z zamondoshlari yozib qoldirgan asarlar kiradi. Bu guruhga kirgan

asarlar tarix fani uchun o'tmishning o'ziga xos manbai bo'lib xizmat qiladi. Badiiy adabiyot yodgorliklari yozib olingan OG'ZAKI ijodiyot asarlarini: afsonalar, dostonlar, qo'shiqlar, masallar va boshqalarni o'z ichiga oladi. Bunday asarlarning juda ko'pida voqeylik qayta-qayta ishlangan, xalq fantaziyasi bilan boyitilgan va bezatilgan bo'ladi. Sinfny jamiyatda mualliflar tarixiy voqelikni o'z sinfiy manfaatlari nuqtai-nazaridan yoritganlar. Mualliflar ko'pincha o'z muxoliflarini, dushmanlarini masxara qilib ularni nihoyatda kulgili qiyofada tasvirlaganlar, ammo yuqori martabali biror odamga yaxshi ko'rinmoqchi bo'lsa unga o'zida yuq fazilatlar berganlar, ko'klarga ko'tarib maqtaganlar. Voqelikni ob'ektiv suratda tasvirlangan asarlar, yodgorliklar bizgacha etib kelmagan taqdirda uzoq o'tmishni, masalan Qadimgi Yunoniston tarixini yoritib berishda ana shunday asarlardan ham tanqidiy yondoshib foydalanish mumkin. Gomer davridagi jamiyat tarixi Gomer dostonlaridan va qisman Yunon afsonalaridan olingan epizodlarni tahlil qilish asosida ta'riflab beriladi. Badiiy yolg'orliklarning asosiy ahamiyati shundan iboratki, ular o'z zamonidagi jamiyatning ideologiyasini aks ettiradi va buni o'quvchilarning tushunib olishlariga tarixiy hodisalar va arboblarning yorqin badiiy obrazlarini ravshan tasavvur qilishlariga yordam beradi. Shu bilan birga o'quvchilar badiiy adabiyotning jamiyat xayotidagi roli bilan ham aniq misollarda tanishadilar. Masalan, «Roland haqida qo'shiq» nomli asarda Karlning o'zi va unng jangchilari ideallashtirilib u olib borgan urushlar tarixi buzib ko'rsatiladi. Shu bilan birga, bu asar ritsarlarning mardligi, o'z sen'origa sodiqligi, fidokorligi bilan, shuningdek o'rta asrlar adabiyotining ana shu turi bilan tanishtiradi. «Roland haqida qo'shiq» shu adabiyot turining eng yaqqol namunasi. Roland uydirma obraz bo'lsada undagi ajoyib fazilatlar o'quvchilarga ijobiy tarbiyaviy ta'sir kursatadi. O'rta asrlarda yaratilgan «Tulki haqida roman»dan shaharliklarning feodallarga munosabatini, ular o'rtasida keskinlashib borayotgan kurashni hamda uni yoritishda satiradan qanday foydalanilganligini o'quvchilar tushunib oladi.

Qadimgi dunyo va o'rta asrlarda yaratilgan afsonalardan, qahramonlik dostonlari va boshqa adabiy asarlardan tarix darslarida foydalanganda, o'quvchilarga bu asarlarga tanqidiy ko'z bilan qarashga o'rgatib borish kerak. Shuningdek, ularga bu asarlar o'tmishdan qolgan badiiy edgorliklar ekanligini, ulardan o'sha davrlarda bo'lib o'tgan voqealarga oid ba'zi ma'lumotlardan foydalanish va qay tariqa foydalanish mumkinligini, bu asar-larning qaysi joyi uydirma va qaysi joylarida real voqelik aks etganini tushuntirish lozim.

Belletrpistik asarlarga — tarixiy romanlar, tarixiy tema-larda yozilgan povestlar, o'rganiladigan davr haqidagi badiiy asarlar, xikoyalar kiradi. Bu asarlar tarixiy manbalar, memuarlar va xujjatlar, ilmiy tekshirish ishlari va monografiyalarni o'rganish asosida yozilgan bo'lib, ularda o'tmish voqealari badiiy tasvirlar va badiiy obrazlar orqali ifodalanadi.

Belletristika tarix fani uchun xujjatli manba bo'la olmasada, o'quvchilarga o'tmishni konkret tushuntirishda muhim vosita bo'lib xizmat kiladi. Tarixiy roman va povestlarni o'qish natijasida o'quvchilarda tarixga qiziqish uyg'otadi.

O'rganilayotgan davrga doir adabiy yodgorliklar tarix darslarida ko'pincha dars materialini xulosalash va umumlashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Belletristika bayon qilinayotgan o'quv materialini konkretlashtirishga va bayonni maroqli qilishga yordam beradi. O'qituvchi badiiy adabiyotni tanlashda materialning ta'lim-tarbiya jihatidan qimmatini tarixiy hodisalarning naqadar real va ilmiy qilib yoritilganligini e'tiborga oladi.

O'qituvchi tarix darslarida foydalanish uchun badiiy adabiyotdan:

- a) maktab dasturida ko'zda tutilgan tarixiy voqealarning tasviriga;
- b) tarixiy arboblardan va xalq ommasi vakillarining obrazlarini, xalq ommasining rolini ko'rsatishga;
- v) muhim tarixiy voqealar bo'lib o'tgan joylarni va u erlarning konkret sharoitini tasvirlashga va shu kabilarga bag'ishlangan asarlarni tanlaydi.

Yuz yillik urushda Frantsiyaning ahvoli Jan de Vennett xro-rikasida: «Shu yili uzumzorlar... karovsiz qolib ketdi; dalalar... haylalmadi, xo'kiz va quylar yaylovlarga chiqmadi; cherkovlar va uylar... hamon tutini burqsib turgan g'amgin xarobalar uyumiga uxshab qolgan edi» deb tasvirlanadi.

O'qituvchi o'z bayonida badiiy adabiyotlardan foydalanish bilan birga o'quvchilarni sinfda va sinfdan tashqari badiiy asarlarni o'qishlari ustida olib boradigan ishlariga doim kontrollik va raharlik qilib boradi.

7. Tarix o'qitishda mustaqil ta'lim va sinfdan tashqari olib boriladigan ishlar

Reja:

1. Mustaqil ta'lim va uning turlari
2. Sinfdan tashqari ishlarining ta'lim va tarbiyaviy ahamiyati.
3. Sinfdan tashqari ishlarining metodlari.
4. Sinfdan tashqari ishlarining mazmuni.
5. Sinfdan tashqari o'qish.

Maktabda o'qitiladigan boshqa predmetlar qatori, tarix o'qitishga o'quv tarbiya ishlarining asosiy tashkiliy shakli dars ekanligini yuqorida ko'rib o'tgan edik. Tarix sevib o'qiladigan fandır. Uni o'rganish jaroayonida o'quvchilarda o'tmishni puxta bilib olish tilagi o'rta boradi, ulardagi bu istakni sinfdan tashqari yo'li bilangina bajo keltirish mumkin.

Tarix predmeti yuzasidan sinfning shakl va metodlari metodik adabiyotda turlicha klassifikatsiya qilinadi. V.N.Bernadskiy sinfdan tashqari ishlar turkumiga bilish manbaalarini asos qilib olib ularni quyidagi turlarga bo'ladi.

Ma'lumki, o'quvchilar faqat darslikni o'qish bilangina chegaraalanib qolsa, ularning bilim darslikni o'qish bilangina chegaralarinib qolsa ularning bilim doirasi va o'tmish haqidagi tassavurlari tor bo'lib qoladi. Shuni e'tiborga olib V.N.Bernadskiy sinfdan tashqari ishlarning asosiy shakli sifatda qo'shimcha o'qishni tavsiya etadi.

1. Qo'shimcha kitob o'qish. (ilmiy ommabop kitoblar, tarixiy belitristika tarixiy dvrga oid) qo'shimcha suratlar ko'rish.
2. Qo'shimcha suratlar ko'rish.
3. Jamoa bo'lib teatr va kinolarga borish hamda ularni birgalikda muhokama qilish.
4. Tarixiy kechalar uyushtirdi.
5. Tarixiy p'essalar ko'rish.
6. Maktab tarixiy ko'rgazmalarni tashkil etish.
7. Olisdagi ta'rixiy joylarga ekskursiyalar tashkil etish.

Keyingi 10-15 yil ichida maktabida sinfdan tashqari ishlar qo'llash kengaydi. Metodist A.A.Vagin tarix ta'limida sinfdan tashqari qilinadi ish metodlari sohasida keyingi yillarda ortirgan ilg'or tajribalarni umumlashtirib ularni uch gruppaga bo'ladi.

1. Og'zaki metod. Sinfdan tashqari ishlarning bu gruppasiga o'qituvchining hikoya kilib berish, ovoz chiqarib o'qish, yuqori sinflarda esa, o'qituvchining darsdan tashqari ishlarda o'quvchilarning aktivligi va mustaqilligini oshirish maqsadida o'quvchilar ham og'zaki so'zlab berish metodidan foydalaniladi. O'quvchilar to'garak yig'ilishlarida tarixiy kechalarda quyi sinflar va aholi o'rtasida qisqacha axborotlar, ma'ruza va refaratlar bilan qatnashadilar.

2. Yozma va bosma manbalar bilan ishlash metodi. Sinfdan tashqari ishlarni bu turiga qo'shimcha o'qish tarixiy-adabiyot to'plamlar, arxivlardagi xujjatlar va boshqalarni o'rganish, vaqtlilik matbuotni o'rganuvchilar to'garagi, qo'lyozma va arxiv xujjatlarini o'rganuvchi «yosh arxivchilar to'garagi» barpo qilish tarixiy maqolalar yozish va x.k.

3. Ko'rsatmali materiallar bilan ishlash. Illyustratsiyalar ko'rsatish, filmlarini ko'rish, ekskursiya materiallarini o'rganish.

Bundan tashqari ekskursiyalar, poxod va ekspeditsiyalar davomida to'plangan materiallar nusxasini ko'paytirish, rasmga olish shu materiallar, asosida modellar yasash, namoyish qilish.

Sinfdan tashqari ishlarning mazmuni. O'quvchilarni yoshi, bilim va malakalari, ularning individual moyiligiga va qiziqishlariga qarab, tarix ta'limida sinfdan tashqari ishlarning mazmuni, shakl va metodlari turlicha bo'ladi. Xozir maktabda sinfdan tashqari ishlarning quyidagi asosiy turlari va tashkiliy shakllari mavjud.

1. Tarix to'garagi (yoki tarixiy o'lkashunoslik).
2. Tarix jamiyati.

3. Sinfidan tashqari tarixiy yoki tarixiy o'lkashunoslik ekskursiyalari, jamoa bo'lib teatr va kinoga borish.
4. Uzoq joylarga tarixiy-o'lkashunoslik ekskursiyalari.
5. Arxeologik ekspeditsiyalarida katnashish.
6. Tarixiy o'lkashunoslik burchak va muzeylari.
7. Xisobot yoki tematik ko'rgazmalar.
8. Tarixiy konferentsiyalar, munozara va muhokamalar.
9. Tarixiy yoki tarixiy o'lkashunoslik o'yinlari.
10. Devoriy gazeta va qo'lyozma jurnallar.

Shuni aytish kerakki, sinfdan tashqari ishlarining mazmuni qanchalik boy va turli-tuman shakllarda olib borilmasin, ular bir maqadga: ta'lim-tarbiya vaziflarini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Sinfidan tashqari o'qish. Qo'shimcha o'qish sinfdan tashqari ishlarining muhim shaklidir. Bu ish o'quvchilarga kitob o'qishni targ'ib qilish, uning ahamiyatini tushuntirish, kitobga qiziqtirish boshlanadi.

Maktab tajribasida IV-VI sinf o'quvchilarini kitob o'qishga qiziqtirish maqsadida ilg'or o'qituvchilar quyidagi usuldan foydalanadi. O'qituvchi o'quvchilarga o'qish kerak bo'lgan kitoblar bilan birga shu kitoblarni o'quvchilarga ko'rsatadi. Qo'shimcha o'qishni tashkil etishda, o'quvchilarni kitobga qiziqtirish bilan birga, mustaqil o'qishni tashkil qila bilish ham zarur.

O'quvchilarning yozuvchilar bilan uchrashuvlari ularning kitobxonlik ishtiyoqini oshirishda muhim o'rin tutadi. Tarixiy mavzularga bag'ishlangan kecha va konferentsiyalarni o'tkazish, o'qilgan kitoblarni muxokama kilish kabi tadbirlar ham muhim o'rin tutadi.

O'quvchilarning sinfdan tashqari ishlarini shu jumladan tavsiya qilingan kitoblardan qanday foydalanilganliklarni o'qituvchi doim nazorat qilib turadi. Bu bilan o'qituvchi o'quvchilarda qo'shimcha adabiyot o'qishga o'rgatadi. Tarix o'qitishda tarixiy o'lkashunoslikning tutgan o'rni.

8. Tarix ta'limida pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanish va uni loyihalashtirish

Reja:

1. Pedagogik texnologiya.
2. Tarix o'qitishda texnologiyalardan foydalanish.

Texnologiya - bu belgilangan maqsad va kafolatlangan natijaga erishishning iqtisodiy samarali loyihalangan jarayonlar ketma-ketligi majmuidir. "Texnologiya" so'zi lotincha "Thegnos" – san'at, hunar, soha va "Logos" – fan degan ma'noni anglatadi.

Texnologik park (texnopark, TP)- ilmiy-texnik sohada tadbirkorlikni samarali rivojlantirish uchun sharoit yaratuvchi yuqori malakali kadrlar hamda etarli axborot va eksperimental' baza bilan ta'minlangan innovatsion infrastruktura sub'ekti. TP- ilmiy tashkilotlar, loyiha-konstruktorlik byurolari, o'quv yurtlari va

ishlab chiqarish korxonalarining birlashmasi shaklidagi fan, ta'lim va ishlab chiqarishning hududiy integratsiyasi hisoblanadi.

1958 yili Amerika fiziklari jamiyati anjumanida professor R.Feynman mashhur ma'ruzasini o'qiydi. Olim ma'ruzasida "Fizika qonunlari va tamoillari alohida olingan atomlar ustida manipulyatsiya o'tkazish va shu orqali har xil buyumlar yaratishga monelik qilmaydi. Shunga asoslanib aytish mumkinki, insoniyat yaqin kelajakda **balk texnologiya** asridan **nanotexnologiya** asriga qadam qo'yadi"- degan ilmiy xulosani ilgari suradi.

Ishlab chiqarish texnologiyasi deyilganda sifatli, zamon talablariga javob beradigan, dunyo bozorida o'z o'rnini topadigan mahsulot ishlab chiqarishdagi iqtisodiy samarali, ma'lum ketma-ketlik asosidagi jarayonlar majmui tushuniladi. Agar ushbu jarayonlar ketma-ketligi yoki boshqacha aytganda texnologiyasida ishlatiladigan texnik vositalar ma'naviy eskirmasa, ushbu texnologiya ma'lum vaqtgacha o'zgarmaydi. Bu texnologiya oldindan aniq va belgilangan maqsad va kafolatlangan natijaga olib boruvchi ishlab chiqarishni loyihalashdir.

Axborot texnologiyalari axborotlarni yig'ish, saqlash, uzatish, qayta ishlash usullari va vositalari majmuidir.

Pedagogik texnologiya esa insonga ta'lim va tarbiya berishning ilmiy asoslangan, inson tafakkuriga, ya'ni ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchining intellektual salohiyatiga bog'liq holda amalga oshiriladigan jarayonlar majmuidir. Pedagogik texnologiyani doimiy bir xil holda (hatto ma'lum qisqa vaqt oralig'ida ham), ya'ni oldindan loyihalashtirilgan jarayon deb bo'lmaydi. Bir so'z bilan aytganda, pedagogik texnologiyani bir qolipga sig'adigan, aniq bir o'zgarmas loyiha deb bo'lmaydi. Chunki har bir auditoriya, har bir guruh uchun tinglovchilarning ma'lumoti, ilmiy salohiyati, yoshi, jinsi va boshqa ko'rsatkichlarga bog'liq holda, kerak bo'lsa guruhdagi har bir tinglovchi uchun alohida pedagogik yondoshuv va uning texnologiyasi talab etiladi. Masalan, pedagog bir mavzuni maktab bolalariga boshqa texnologiya asosida, oliy o'quv yurti talabalariga boshqa texnologiyada, ishlab chiqarishdagi muhandis-texnik xodimlarga boshqa va oliy o'quv yurti pedagoglariga boshqa texnologiya asosida o'tishi talab etiladi. Shuningdek, oldindan ma'lum bir guruhda dars o'tishda, pedagogning oldindan loyihalashtirib kelgan dars o'tish texnologiyasi, auditoriyaning tayyorgarligi, undagi savol-javoblar natijasida yuzaga keladigan vaziyatlar asosida o'zgarishi ham mumkin. Shundagina pedagog aniq ko'zlangan natija - ya'ni o'z bilimini tinglovchilar tafakkuriga etkazib, ularda rivojlantiruvchi faol faoliyat uyg'ota oladi. Menimcha o'qitishdan maqsad, tinglovchiga oldindan aniq, bor narsani o'rgatish emas, balki o'qishni o'rgatishdir. CHunki, biz bugun talabaga o'rgatayotgan texnik vositalar, ayniqsa axborot –kommunikatsiya tizim texnikalari tezda ma'naviy eskiradi, demak bitiruvchi o'zi mustaqil o'qib, yangi texnik vositalar bilan ishlash sirlarini bilishi, shunga o'zida amaliy ko'nikma hosil qilishi lozim.

Talaba ma'lumotlarni faqat eshitish orqali qabul qilsa, berilgan ma'lumotlarning o'rtacha 20 foizini o'zlashtiradi. Shu sababli agar ma'ruza faqat mavzuni og'zaki tushuntirish shaklida (an'anaviy) o'tilsa, talabalar darsda berilgan ma'lumotlarning 80 foizini esda saqlab qolmaydi va darrov unutishadi. O'rtacha

odam bir minutda 800 tagacha soʻzni eshitishi va tushunishi mumkin. Vaholanki, auditoriyadagi talabalar oʻqituvchi nutqiga nisbatan 4 marta tez eshitish qobiliyatiga ega. Demak, ogʻzaki tushuntirish vaqtida vaqtning 75 % qismida talaba eshitmaydi, u boʻsh qoladi, agar oʻqituvchi faqat ogʻzaki tushuntirib, maʼruza qilsa talaba diqqatini yoʻqotadi. Shu sababli maʼruzani faqat oʻqib berish yoki ogʻzaki tushuntirish shaklida olib borish samarasiz hisoblanadi. Agar talaba maʼlumotlarni bir marta oʻzi oʻqisa u 25 foiz maʼlumotni eslab qoladi. Demak maʼruzada, talabalar oldida maʼruza qilish bilan birgalikda, ulardan mavzuning asosiy joylarini dars davomida oʻzlari oʻqishlari talab etilsa, maʼruza samarasi ortadi. Buning uchun slaydlar, tayanch iboralar, tarqatma materiallar zarur boʻladi va maʼruza davomida ulardan talaba faolligi taʼminlangan holda foydalaniladi. Agar berilayotgan maʼlumotlar ikki marta takrorlansa, talaba maʼlumotlarning 30 foizini eslab qoladi. Agar Siz maʼruzada mavzuning asosiy, muhim joylarini ikki marta takrorlasangiz, oʻzlashtirish faqat oʻqib berishga nisbatan 10 foizga ortadi. Agar takrorlash slaydlar, oʻquv-vizual materiallar asosida bajarilsa darsning samaradorligi yanada ortadi, yaʼni asosiy tayanch iboralar ham ikki marta takrorlanadi, ham talabalar tomonidan oʻqiladi. Agar talaba yozib, oʻqisa maʼlumotlarni 45 foizgacha oʻzlashtiradi. Demak maʼruzaning tayanch iboralarini maʼruza davomida yozdirib borilsa, oʻzlashtirish ikki marta ortadi. Talaba oʻrtacha bir minutda 40 tagacha soʻz yozishi mumkin. Lekin, maqsad faqat tez yozdirish boʻlib qolsa, natija etarli darajada samarali boʻlmaydi. Shuning uchun maʼruzaning tayanch iboralari yozdirilayotganda, talabaga diqqatini jamlab, tushunib yozishi uchun vaqt berish kerak, yaʼni yozdirilayotgan iboralarni toʻxtab-toʻxtab, sekin ifoda etish zarur. Koʻpchilik muhokama, bahs jarayonida maʼlumotlarning 60 foiziga yaqinini oʻzlashtiradi, yaʼni oʻquv jarayoni oddiy maʼruza oʻqishga nisbatan 3 marta samarali boʻladi. Agar maʼruzada yuqoridagi uslublar (ogʻzaki tushuntirish, qaytarish, oʻquv-vizual materiallar yordamida koʻrsatish, talabadan oʻqishni talab qilish, tayanch iboralarni yozdirib borish) maʼlum bogʻliqli ketma-ketlik asosida birgalikda joriy etilsa oʻquv samarasi yanada ortadi. Talaba berilayotgan maʼlumotlarni hayotiy tajribasi orqali taqqoslasa, bilim amaliyot orqali etkazilsa, talabalarga doimiy ushbu materiallarni real hayotda kerak boʻlishi tushuntirilsa, mashgʻulotda mavzuni real hayot bilan bogʻlab talabalarning faol fikr bildirishlariga sharoit yaratilsa, mavzu boʻyicha berilayotgan maʼlumotlarni talabalar tomonidan 80 foizgacha oʻzlashtirishlariga erishish mumkin. Yaxshi pedagog oʻrtacha bir minutda 170 tagacha soʻz talaffuz etishi mumkin. Oʻrtacha student minutiga 400 tagacha soʻzni oʻqishi va tushunishi mumkin. Bu shuni bildiradiki, oʻqituvchi maʼlumotlarni slaydlar koʻrinishida yoki tarqatma materiallar koʻrinishida tushuntirishdan oldin bersa, oʻqituvchi tushuntirguncha talabalar ushbu materiallarni ikki marta tez oʻqib ulguradilar. Talabalar oʻzlari maʼlum miqdorda boʻlsada oʻqib olgach, maʼruzachining tushuntirishlariga kam eʼtibor berishadi. Shu sababli, agar oldin tushuntirib, keyin oʻquv-vizual materiallar orqali tushuntirish takrorlansa, eng yaxshi natijaga erishiladi. Ayrim pedagoglar oʻqitishning interaktiv uslublari deganda zamonaviy oʻquv-vizual materiallar (oddiy, mulʼtimedia va animatsion slaydlar, tarqatma materiallar, maʼruza matnlari, texnik vositalarning modellari, maketlari va b.)dan hamda

zamonaviy texnik vositalar (komp'yuterlar, elektron doskalar va b.)dan foydalanish, ma'ruza matnlarini oldindan talabaga taqdim etib, talabaning darsga tayyor bo'lib kelishini ta'minlash kabilarni tushunishadi. Albatta bu to'g'ri fikr emas.

O'qitishning interaktiv uslublari O'qitishning interaktiv uslublari deyilganda birinchi navbatda talabaning o'quv jarayonini faol ishtirokchisiga aylantirishga qaratilgan innovatsion pedagogik uslublar majmui va texnik vositalar tizimi tushuniladi. Interaktiv uslubdagi mashg'ulotda talaba berilayotgan ma'lumotlarni tinglashi, o'qishi, ko'rishi, yozib borishi, mavzu bo'yicha savollar berishi, o'z fikrini erkin bayon etishi, amaliy topshiriqlarni bajarishi va o'zining hayotiy tajribasi bilan bog'lab, mavzu bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalar hosil qilishi lozim. Quyida o'qitishning interaktiv uslublarini ayrimlari to'g'risida ma'lumotlar keltiramiz:

Muhokama-munozara. Bu interaktiv o'qitishning eng keng tarqalgan usuli hisoblanadi va talabalarning ushbu mavzu bo'yicha turli xil bilim darajasi va tajribalari asosida o'rganiladigan masalaga qanday yondoshishi ko'zda tutiladi. Bunda o'qituvchi muhokama uchun muammoli savolni yoki hayotdagi aniq bir vaziyatni belgilab, o'rtaga tashlaydi. Talabalarni esa mavzudan chetga chiqishlariga yoki ayrim faol talabalarni etakchi bo'lib, faqat ular fikr bildirishlariga yo'l qo'ymaydi, mumkin qadar barcha talabalarning faol ishtirok etishlariga ahamiyat beradi, talabalarni bir-birini fikrlariga hurmatsizlik bilan qarashlariga yo'l qo'ymaydi. Muhokama oxirida o'qituvchi fikrlarni umumlashtirib, o'z fikrini nazariy va amaliy isbotlab bayon etadi.

Jamoaviy muhokama yoki muammolar ruyxatini tuzish. Talabalarga biror bir masala, muammo yoki mavzu doirasidagi aniq bir vaziyat ustida o'ylab, ulardan muhokama qilish uchun g'oyalar, takliflar ruyxatini tuzish talab etiladi. Ushbu uslubda muammoni o'qituvchi emas, balki talabalar o'ylab topadi. Masalan: "Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni oldini olishga nimalar to'sqinlik qilmoqda?". Talabalardan real hayotda, ishlab chiqarishda baxtsiz hodisalarni oldini olishga to'sqinlik qilayotgan masalalar va muammolar ruyxatini tuzish talab etiladi.

Vaziyatni o'rganish, tahlil qilish. Bunda mavzuning ayrim masalalariga bog'liq aniq hayotiy vaziyatlar o'rtaga tashlanadi. Talabalardan ushbu vaziyatdan qanday chiqish yo'llari ustida o'ylash va o'z fikrlarini bayon etish so'raladi. Masalan, "Elektr xavfsizligi" mavzusi o'tilayotganda, shunday vaziyat o'rtaga tashlanishi mumkin: "Kom'yuterda ishlayotgan operator elektr tokidan jarohatlanishi mumkin. Bunga nimalar sabab bo'lishi mumkin?". Muhokama yakunida o'qituvchi vaziyatni savol bilan umumlashtiradi. Masalan, "Biz nima haqida bilib oldik?", "Biz qanday xulosaga kelishimiz mumkin?", "Hayotda Siz shunday vaziyatga tushmasligingiz uchun nima qilishingiz kerak?".

Bahs yoki munozaralar olib borish. Talabalar ikki (yoki bir necha) guruhlariga bo'linadi. O'qituvchi tomonidan umumiy muammo belgilab beriladi. Talabalar ushbu muammoni hal qilish bo'yicha o'z yo'nalishlarini belgilab olishadi. Vaqtni tejash maqsadida o'qituvchi har bir guruhga ushbu muammodan chiqishning yo'nalishini ham ko'rsatib berishi mumkin. Har bir guruh muammoni

hal qilish bo'yicha o'z yo'nalishini himoya qiladi. Bahs oxirida o'qituvchi muammo echimlari bo'yicha ikkala guruh fikrlarini umumlashtirib, talabalar ishtirokida xulosalaydi.

Tanqidiy fikrlash. Dars bahs-munozara shaklida tashkil etiladi. Talabalarga muammoli savol beriladi va har bir talabaning ushbu savol bo'yicha mustaqil fikri tinglanadi. Bunda talabalarda mavzuni o'zlashtirishlari bilan bir qatorda:

- o'z fikrini erkin bayon qilish;
- boshqalar fikrini tinglash va o'rganish;
- boshqa kishi fikriga befarqlik bilan qaramaslik;
- o'z fikri bilan boshqalar fikrini taqqoslash;
- muammo bo'yicha to'g'ri echim (qaror) qabul qilish kabi hislar

shakllanadi. Tanqidiy fikrlash uslubining so'nngi bosqichida talabalar tomonidan bildirilgan turlicha fikrlar qaytadan baholanadi va mutunosiblik aniqlanadi.

Rolli o'yinlar. Faol talabalar tanlab olinadi va ularga mavzuga oid hayotiy vaziyatlarda rol o'ynash talab etiladi. Bu uslubda o'qitish jarayoni uch bosqichda, ya'ni vaziyat bo'yicha rol o'ynash, vaziyatni kuzatish, vaziyatni tahlil qilish va o'z echimini qabul qilish asosida amalga oshiriladi. Rolli o'yin uchun mavzu tanlashda ishlab chiqarishda talaba duch kelishi mumkin bo'lgan vaziyatlar olinadi. Rol orqali talaba o'zining kelajakdagi faoliyatini ko'z oldiga keltiradi. Ushbu uslub mashg'ulot davomida o'zgaruvchan bo'lishi kerak. O'qituvchi mashg'ulot davomida savol berib, holatni o'zgartirishi mumkin. Natija- qisqa vaqtda samarali o'zlashtirishga erishish talab etiladi.

Rolli o'yinlarda talabalar quyidagi bilim, uquv va ko'nikmalarga ega bo'lishi mumkin:

- ishlab chiqarish bilan bog'liq masalalar ustida amaliy muloqat qilish, tajribasini ortdirish;
- jamoadagi bir xodim xarakterini yoki fikrini boshqa kishiga ta'sir etishini anglash;
- vaziyatlar bo'yicha mustaqil qaror qabul qilish va o'z fikrini bayon eta bilish;
- vaziyatni tahlil qila olish;
- vaziyatdan chiqish rejasini va strategiyasini ishlab chiqishni bilish.

Kichik guruhlarda ishlash. Talabalarni bir necha guruhga bo'lib, ularga mavzuga oid aniq bir masala yoki vazifa ustida ishlash topshiriladi. Ularga ma'lum vaqt beriladi, keyin berilgan vaqt tugagach har bir guruhning ushbu mavzu bo'yicha qarori, fikrlari tinglanadi.

Kichik guruhlar uslubida mashg'ulot olib borilganda quyidagilarga erishiladi:

- har bir talabani faol ishtiroki ta'minlanadi va ularning faoliyatini nazorat qilish va baholash imkoniyati ortadi;
- muammoni tez hal etish usuli ta'minlanadi. Talabalar qisqa vaqt ichida ko'plab yangi g'oyalar ijodkori bo'lishadi;
- mashg'ulotning istalgan vaqtida talabalarning qiziqishini ortdirish va butun katta guruh bo'yicha muhokama qilish imkoniyati ta'minlanadi;

- ayrim talabalar o'zlarining mavzuga oid ushbu muammo bo'yicha shaxsiy fikrlarini o'qituvchiga aytishdan tortinishadi, kichik guruhlarda esa ular guruhdoshlari bilan erkin fikr almashishadi, ya'ni mashg'ulotda faol ishtirok etishadi.

Aqliy hujum. Aqliy hujum uslubini birinchi bo'lib bundan bir necha o'n yillar oldin F.Osborn Aleks reklamasi orqali Batter, Barton, Dastin va Osborn firmalarida qo'llagan. Keyinchalik ushbu uslubdan yirik xalqaro korporatsiyalar ham foydalana boshlashgan. Hozirgi kunda ko'pgina rivojlangan davlatlarda, ushbu uslub ma'muriy boshqarishda va nodavlat tashkilotlarda oddiy odatiy holga aylandi. Respublikamizdagi ta'lim muassasalarida ushbu uslubdan 2000 yillardan boshlab foydalanila boshlandi. Ushbu uslubning mohiyati juda oddiy. Talabalar mavzuga oid muammoli savol yoki masala bilan tanishtiriladi. Masala bo'yicha talabalar o'z g'oya va fikrlarini bildirishlari uchun aniq vaqt ajratiladi, masalan - 10 minut. 10 minut ichida bildirilgan barcha g'oyalar va fikrlar yozib boriladi. Bildirilayotgan g'oyalar baholanmaydi, auditoriyada shovqin bo'lishiga, ayrim talabalaraning boshqa talaba fikri ustidan kulishi yoki uni baholashiga ruxsat berilmaydi. Dastlabki maqsad-son! G'oya qancha ko'p bo'lsa shuncha yaxshi. Alohida faol talabalarning etakchilik qilishlariga, ya'ni faqat bir necha talaba fikr bildirishlariga yo'l qo'yilmaydi. Mumkin qadar barcha talabalar fikrini bayon etishlariga imkoniyat yaratiladi. Vaqt tugagach talabalarga ekranda yozilgan barcha fikrlarni o'qib, mushohada qilishlariga vaqt ajratiladi. Keyin o'qituvchi yordamida barcha g'oyalar guruhlarga bo'linadi va ular tahlil qilinib, eng maqbul variant tanlab olinadi.

"Klaster" (tutam, bog'lam) usuli. Bu uslub oldindan mavjud bilimlar, mavzu bo'yicha tushunchalar zahirasi asoslanadi. O'qituvchi asosiy (tayanch) so'zni doskaga yozadi, talabalar asosiy so'zni to'ldiruvchi yoki ushbu so'z echimiga bog'liq so'zlarni aytishadi. O'qituvchi talabalar tomonidan aytilgan so'zlarni "Klaster" atrofiga to'plab, mantiqiy zanjir hosil qiladi.

Ajurli arra" texnologiyasi. Bunday texnologiya asosida mashg'ulotlar tashkil etilganda, talabalar(o'quvchilar)ning hamkorlikda ishlashiga va qisqa vaqt ichida katta hajmdagi axborotlarni o'zlashtirishga imkon yaratiladi. O'qituvchi murakkab mazmunli mavzular bo'yicha o'quvchilarni darsga tayyorlash uchun ularning har biriga alohida axborotli paket tayyorlaydi. Har bir talaba ikki guruh tarkibida ishtirok etadi. Ular dastlab birinchi guruhda, keyin esa "ekspert" guruhiga birlashib, mavzuni mustaqil o'rganishadi. Guruh 5-6 kishidan iborat bir necha kichik guruhlarga bo'linadi. Har bir guruhdan "ekspert" talaba ajratib olinadi va ularga paketdagi aniq mavzuga oid savollar beriladi. Paketda ushbu savolga oid o'quv materiallari bo'ladi. ekspert talabalar alohida ajralishib, mavzularni mustaqil o'rganishadi va o'zaro tahlil qilishadi. Keyin, ekspert talabalar o'z guruhlariga qaytishib, o'rganganlarini guruh a'zolariga o'rgatishadi. Mashg'ulot oxirida o'qituvchi ekspertlar fikrlarini yakunlab, mavzuni to'ldiradi.

FSMU texnologiyasi. Ushbu texnologiya tinglovchilarni o'z fikrlarini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikriga boshqalarni ishontirishga, ochiq-oshkora bahslashishga, egallagan bilimlarni tahlil qilishi, ularni qay darajada egallaganligini baholashga hamda tinglovchilarni bahslashish madaniyatiga

o`rgatadi. Ushbu texnologiya tinglovchilarga qog`ozga o`z fikrlarini aniq va qisqa holatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarini bayon etish tartibida amalga oshiriladi

F – fikringizni bayon eting.

S - fikringiz bayoniga sabab ko`rsating.

M- ko`rsatilgan sababni tushuntiruvchi misol keltiring.

U - fikringizni umumlashtiring.

FSMU texnologiyasida mavzu bo`yicha savol qo`yiladi. Talabalarga FSMU texnologiyasining mohiti va ularning vazifasi tushuntiriladi. Topshiriqni bajarish uchun aniq vaqt belgilaydi, masalan 15-20 minut. Topshiriqni har bir talaba shaxsan bajarishi talab etiladi. Talabalar faoliyatini kuzatadi, ularning savollariga javob berib boradi, yo`naltiradi, maslahatlar beradi. Kuzatuv davrida to`g`ri qaror yoki fikr yozayotgan talabalarni aniqlaydi. Javoblarni yig`ib olib, kuzatuv davrida nisbatan to`g`ri deb topilgan talabalarning fikrlarini o`qiydi, qo`shimchalar kiritib, savol bo`yicha to`liq ma`lumot beradi. Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda, bahs-munozaralar o`tkazishda yoki o`quv-seminari yakunida (tinglovchilarning o`quv-seminari haqidagi fikrlarni bilish maqsadida) yoki o`quv rejasi asosida biron bo`lim o`rganib bo`lingach qo`llanilishi mumkin.

“Bumerang” texnologiyasi. Mazkur texnologiyada talabalarga turli xil ko`rinishdagi (ochiq, yopiq, ko`ndalang) savollar beriladi. Talabalarda tanqidiy fikrlash, mantiqni shakllantirishga imkoniyat yaratadi, o`z g`oya va fikrlarini og`zaki yoki yozma shakllarda bayon etish qobiliyatlarini shakllantiradi. Ochiq savollar muomala, so`zlashuvni davom etdirishga imkon beradi. Ularga qisqa, bir xil javob berish mumkin emas. Yopiq savollar oldindan “ha” yoki “yo`q” usulidagi to`g`ri, qisqa javoblarni berishni ko`zda tutadi. Ko`ndalang savollar bir-biriga guruhlab beriluvchi qisqa savollardan iborat bo`lib, bu o`ziga xos axborotlar izlash hamda dalillarni aniqlashtirish, boshqalar fikrini aniqlash va muayan qarorlar qabul qilishga imkoniyat yaratadi. Ko`ndalang so`roq paytida munozaraga kirishilmaydi. Mazkur texnologiya bir mashg`ulot davomida o`quv materialini chuqur va yaxlit holatda o`rganish, ijodiy tushunib etish, erkin egallashga yo`naltirilgan.

Insert jadvali. Talabalarda ma`ruzalar va mustaqil ta`lim jarayonida olgan bilimlari asosida nazariy ma`lumotlarni tizimlashtirishni, uni tasdiqlash, aniqlashtirish yoki rad qilish, qabul qilinayotgan ma`lumotlarning tushunarligini nazorat qilish, avval egallagan bilimlarini yangisi bilan bog`lash qobiliyatlarini shakllantiradi. Shu sababli, ushbu uslub mavzu bo`yicha rejadagi mashg`ulotlar o`zlashtirilgach, talabalar mavzuga oid bilim va ko`nikmalarga ega bo`lgach qo`llaniladi. O`qituvchi mavzuning aniq mazmun va mohiyatini

yoritib beradi va dars yakunida talabalarga ushbu mavzu bo`yicha “Insert” jadvali asosida uyda mustaqil ishlashlari uchun topshiriq beradi. Talabalar ushbu jadval asosida darsda olgan bilimlarini o`z bilimlari, real hayotiy tajribalari bilan taqqoslaydi, mavzu bo`yicha mustaqil ishlab, yangi ma`lumotlar oladi, ularni matnda qo`yilgan belgilar asosida jadvalga kiritadi.

“Skarabey” texnologiyasi. O`qitishning interaktiv texnologiyalaridan biri bo`lib, undan o`quv materiallarini o`rganishning turli bosqichlarida foydalanish

mumkin. Bu texnologiyada talabalar tajribasidan foydalaniladi, reflektiv kuzatishni amalga oshiradi, faol ijodiy izlash va fikriy tajriba o'tkazish imkoniyatini yaratadi. Ushbu texnologiya quyidagi ketma-ketlik asosida amalga oshiriladi:

- dastlab o'quv mavzusining mohiyati, tuzilishi va mazmuni "aqliy hujum" texnologiyasi asosida belgilanadi;

- mavzu bo'yicha o'rganiladigan savollar o'rtasidagi aloqalar, bog'liqlik, asosiy tushunchalar aniqlanadi;

- mavzuning har bir savoli chuqurroq o'rganiladi, mavzu bo'yicha talabalarda yangi g'oyalar paydo bo'lishiga imkoniyat yaratiladi.

- O'qituvchi mavzuni yakunlab, olingan bilimlarni mustahkamlaydi.

«Kaskad» texnikasi. Ushbu texnologiya g'oyalar tizimini ishlab chiqishga ko'mak beradi. Asosiy maqsadi: aniq va ijodiy fikrlash qobiliyatini faollashtirish.

BBXB (bilaman, bilishni xohlayman, bilib oldim) texnikasini. Ushbu texnologiyada har bir talabaga shaxsiy topshiriq berilishi mumkin. Topshiriq muayan mavzu bo'yicha savollar tarzida beriladi. Talaba ushbu savollar bo'yicha nimalarni bilishini, bilishni xohlashini va mashg'ulot davomida nimalarni qo'shimcha ravishda bilib olganligini BBXB jadvaliga yozadi. Bunda tayanch iborlar o'qituvchi tomonidan berilishi ham mumkin.

Kontseptual jadval. Guruh bir necha kichik guruhlariga ajratiladi. Har bir guruhga mavzuga oid muammoli savollar beriladi. Javoblar yozma ravishda o'qituvchiga taqdim etiladi. Guruh sardorlari javoblar bo'yicha prezentatsiya shaklida chiqish qiladi.

"Veer" texnologiyasi. Murakkab, muammo xarakterdagi mavzularni o'rganishda qo'llaniladi. Bu texnologiyada mavzu bo'yicha dastlab to'liq va qisqa ma'lumot beriladi. Keyin mavzu bo'yicha asosiy muammoli savollar ajratilib, alohida kichik guruhlarda muhokama etiladi, ya'ni muammoning ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik va kamchiliklari, foyda-va zararlari aniqlanadi. Bu interaktiv texnologiya tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni shakllanib, talabalarga o'z fikrlarini og'zaki yoki yozma bayon etishlariga, himoya qilishlariga sharoit yaratadi."Veer" texnologiyasi yordamida mavzuning alohida savollari bo'yicha kichik guruhlarning, har bir talabaning faol ishtirok etishi ta'minlanadi va ularning ushbu savol bo'yicha bilimlari baholanadi.

Pirbord texnikasi. Pirbord inglizcha Pin- mahkamlash, board- doska so'zidan olingan bo'lib, muammoni hal qilishga oid fikrlarni tizimlashtirib, guruhlarni amalga oshirish, jamoa tarzda yoki yagona holda qarama-qarshi fikrlarni shakllantirishga imkon yaratadi. Dastlab o'qituvchi muammoli savolni o'rtaga tashlaydi va talabalardan o'z fikrlarini bayon etishni so'raydi. To'g'ridan-to'g'ri yoki ommaviy aqliy hujumning boshlanishini tashkil etadi. Faol talabalar rag'batlantiriladi. Keyin fikrlar tahlil qilinib, muhokama qilinadi, baholanadi va eng samarali fikr tanlanadi. Ushbu tayanch xulosaviy fikr alohida qog'ozlarga va doskaga yoziladi (mahkamlanadi). Ushbu texnologiyada muammoli savol bo'yicha barcha fikrlar jamlangach, guruh namoyandalari doskaga chiqadilar va maslahatlashgan holda:

- xato yoki takrorlanayotgan fikrlar olib tashlanadi;
- bahsli fikrlarga aniqlik kiritiladi;

- fikrlar ma`lum belgilar bo`yicha tizimlashtiriladi, guruhlarga ajratiladi;
- ularning o`zaro munosabatlari chiziqlar yoki boshqa belgilar yordamida belgilanadi. Jamoaning yagona yoki qarama-qarshi fikrlari ishlab chiqiladi.

“*T-sxema-texnikasi*”. Bu texnologiya murakkab, ko`p tarmoqli, muammo xarakteridagi mavzuli ma`ruza mashg`ulotlarining yakunida qo`llaniladi. Talabalarda tanqidiy, tahliliy, mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga, hamda o`z g`oyalari va fikrlarini yozma yoki og`zaki bayon etish, ularni himoya qilishga imkoniyat tug`diradi. Dastlab talabalar “T-sxema” qoidalari bilan tanishtiriladi. Talabalar yakka tartibda, juft-juft bo`lib yoki kichik guruhlarda T-sxemani to`ldiradilar. O`z g`oyalarini yozma ravishda T-sxemaning o`ng va chap taraflarida yozib chiqadilar. G`oyalar qarama-qarshi bo`lishi ham mumkin. Sxemadagi g`oyalar taqqoslanib, tahlil qilinadi.

Del`fi texnikasi. Ushbu tenologiya muammo echimining eng sarasini tanlash va baholashga asoslangan.

Blits-so`rov. Kichik guruhlarda ishlash texnologiyasiga asoslangan. Dastlab mavzu bo`yicha 15-20 minut umumiy savol- javob qilinadi. Mavzu bo`yicha muammoli savollar aniqlab olinadi. Keyin guruh kichik guruhlariga bo`linib ularga muammoli savollar bo`lib beriladi. Guruhlarda ishlash va tayyorlanish, savollar bo`yicha yakuniy xulosaga kelish uchun aniq vaqt beriladi. Har bir guruh o`z xulosasini bayon etgach, guruhlar o`zaro baholashadi. Mashg`ulot oxirida individual test o`tkazilib, mavzu bo`yicha har bir talabaning reying bali aniqlanadi.

Blits-so`rov-15 minut;

Guruhlarda ishlash va prezentatsiyaga tayyorlanish- 20 minut;

Guruhning mavzu bo`yicha o`z nuqtai-nazarini bayon etishi- 5 minut;

Jamoaviy muhokama, xulosalarni shakllantirish- 5 minutgacha;

O`zaro baholash-1 minut;

Individual test o`tkazish-5 minut.

“*Nima uchun?*” *texnikasi*. O`qituvchi mavzudagi muammoli masalani ochib beradi va “Nima uchun?” savoli bilan talabalarga murojaat qiladi. Nima uchun? savoli ketma-ketlik asosida takrorlanadi. Bunda talabalarda mavzu bo`yicha yangi g`oyalar, fikrlar tug`ilishiga imkoniyat yaratiladi. Talabaning erkin fikrlash, o`z fikrini bayon etish xususiyati shakllantiriladi. “Nima uchun?” savolini o`qituvchi yoki talaba ham berishi mumkin. Yoki, guruh 2 ta kichik guruhga ajratilib, biri ikkinchi guruh javobi asosida o`zining qarama-qarshi fikrini bildirib, “Nima uchun?” savolini beradi, ikkinchi guruh vakillari javob berishadi.

Ma`ruza-anjuman. Talabalarga ma`ruza mavzulari oldindan belgilab beriladi. Talabalar ushbu mavzu bo`yicha tayyorlanib, chiqish qilishadi. Mavzuni o`zlashtirishda guruhning barcha talabalarini faol ishtirokini ta`minlash maqsadida ma`ruza munozara shaklida o`tkaziladi. Talabalar tomonidan taqrizchi belgilanadi. Ma`ruzachi o`z ma`ruzasini tugatgach, taqrizchi fikrini bildiradi. Keyin guruh talabalari ma`ruzachi va taqrizchiga savollar berishadi. Ushbu texnologiyani seminar mashg`ulotlarida qo`llash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Oliy ta`limda zamonaviy ma`ruzalar, masofaviy ta`lim texnologiyasi, korporativ ta`lim texnologiyasi, shaxsga yo`naltirilgan ta`lim

Seminar mavzulari va ular bo`yicha ajratilgan soatlarning taqsimoti
V- Semestr uchun

№	Amaliy mashg`ulot mavzulari	Soati
5- Semestr		
1	Tarix o`qitish metodikasining predmeti, maqsadi va vazifalari	8
2	Tarix darsi, tuzilishi, uning turlari va zamonaviy talablar	4
3	Tarix o`qitishning metodlari va ularning klassifikatsiyasi	6
4	Tarix darslarida ta`lim vositalaridan foydalanish	2
5	Tarixiy bilimlarni shakllantirish jarayoni va tarix darslarini samaradorligini oshirish yo`llari	2
6	Tarix darslarida tarixiy manbalardan, badiiy va boshqa adabiyotlardan foydalanish	4
7	Tarix o`qitishda mustaqil ta`lim va sinfdan tashqari olib boriladigan ishlar	4
8	Tarix ta`limida pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanish va uni loyihalashtirish	4
	Jami	34
	Umumiy jami	34

1. Tarix o`qitish metodikasining predmeti, maqsadi va vazifalari. 2 s.

Reja

1. Tarix fanini o`qitish va o`rganish zarurati va ahamiyati.
2. Tarix o`qitish metodikasining predmeti, metodologik asosi va uning vazifalari.
3. Tarix o`qitish metodikasi fanining maqsadi.

2. Tarix o`qitish metodikasining predmeti, maqsadi va vazifalari. 2 s.

Reja:

1. Tarix o`qitish metodikasining rivojlanish bosqichlari.
2. Sovetlar davrida tarix o`qitishning ahvoli.
3. Mustaqillik yillarida tarix o`qitish metodikasi.

3. Tarix o`qitish metodikasining predmeti, maqsadi va vazifalari (Tarix o`qitish metodikasining asosiy tamoillari). 2 s.

Reja:

1. Tarixiy ketmaktlik (xronologiya).
2. Ilmiy xolislik.
3. Inson omili.
4. O`quvchilar yoshi ruhiyatini hisobga olish.

4. Tarix o`qitish metodikasining predmeti, maqsadi va vazifalari. 2 s.

Reja:

1. Ta`lim to`g`risidagi qonun, kadrlar tayyorlash milliy dasturi (1992, 1997).
2. Ta`lim to`g`risidagi qonun (2022): mazmun va mohiyati.

3. Davlat ta'lim standartlari.
4. Tarix fani yuklamalari.

5-6. Tarix darsi, tuzilishi, uning turlari va zamonaviy talablar. 4 s.

Reja

1. Tarix darsining o'quvchilarga bilim berish, ularni Vatanga muxabbat ruhidagi tarbiyalashdagi o'rni.
2. Tarix darslarining mohiyati, ta'lim jarayonini tashkil etish.
3. Tarix darslarining turlari.
4. Tarix darslariga bo'lgan zamonaviy talablar.

7. Tarix o'qitishning metodlari va ularning klassifikatsiyasi (Tarix o'qitishida og'zaki ta'lim metodi). 2 s.

Reja

1. Tarix o'qitish metodlarini klassifikatsiya qilish.
2. O'qituvchi jonli nutqining ta'lim- tarbiyaviy ahamiyati.
3. O'qituvchining bayoni oldiga qo'ygan talablari.
4. Tarix materiallarini og'zaki bayon qilish metodlarining turlari.

8. Tarix o'qitishning metodlari va ularning klassifikatsiyasi. (Bosma matnlar va tarixiy hujjatlar bilan ishlash). 2 s.

Reja.

1. Tarix darsligi matnlari ustida ishlash, tushintirish va izohlash.
2. Siyosiy arboblarning asarlarini va siyosiy hujjatlarni o'rganish.
3. Tarixiy hujjatlar.
4. Moddiy madaniyat buyumlari.

9. Tarix o'qitishning metodlari va ularning klassifikatsiyasi (Tarix o'qitishning ko'rgazmali usuli). 2 s.

Reja.

1. Ko'rgazmali qurollar – tarixiy bilimlarining muhim manbasi ekanligi
2. Predmet ko'rgazmaliligi.
3. Tasviriy ko'rgazmalar.
4. Shartli ko'rgazmalar.

10. Tarix darslarida ta'lim vositalaridan foydalanish. 2 s.

Reja

1. Tarix ta'limi vositalari klassifikatsiyasi.
2. Zamonaviy ta'lim vositalari.
2. Axborot - kommunikatsiya texnologiyalari vositalari va ularni ta'lim jarayonida qo'llash imkoniyatlari.

11. Tarixiy bilimlarni shakllantirish jarayoni va tarix darslarini samaradorligini oshirish yo'llari. 2 s.

Reja

1. Tarixiy bilimlarni shakllantirishda faktlarning o'ri.
2. Tarixiy bilimlarni shakllantirishda tarixiy tushunchalarning o'ri.
3. Tarix darslari samaradorligini oshirishning ilmiy - uslubiy asoslari.
4. Tarix darslarini samaradorligini oshirish yo'llari.

12. Tarix darslarida tarixiy manbalardan, badiiy va boshqa adabiyotlardan foydalanish. 2 s.

Reja

1. Tarix o'qitishda tarixiy manbalarning ahamiyati.
2. Tarix darslarida tarixiy manbalar ustida ishlash.
3. Tarix o'qitishda ommaviy axborot vositalaridan foydalanish.

13. Tarix darslarida tarixiy manbalardan, badiiy va boshqa adabiyotlardan foydalanish. 2 s.

Reja

1. Badiiy adabiyotlardan foydalanishning ta'lim – tarbiyaviy ahamiyati.
3. O'rganilayotgan davrlarning adabiy yodgorliklari.
3. Tarixiy belletristik asarlar.

14. Tarix o'qitishda mustaqil ta'lim va sinfdan tashqari olib boriladigan ishlar (2 s).

Reja

1. Mustaqil ta'lim turlari.
2. Mustaqil ta'limni bajarish usullari.
3. Mustaqil ta'limning ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati.

15. Tarix o'qitishda mustaqil ta'lim va sinfdan tashqari olib boriladigan ishlar (2 s).

Reja

1. Sinfdan tashqari ishlarning ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati
2. Sinfdan tashqari ishlarning usullari
3. Sinfdan tashqari ishlarning mazmuni va shakllari
4. Sinfdan tashqari kitob o'qish.

16-17. Tarix ta'limida pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanish va uni loyihalashtirish (4 s).

Reja

1. Pedagogikada dars jarayoniga yangicha yondoshuv (innovatsiya).
2. Pedagogikada dars jarayoniga yangicha yondoshuvning maqsad va vazifalari.
3. Tarix darslarida pedagogik texnologiyalardan foydalanish.
4. Ta'lim jarayonida interfaol usullar.

Mustaqil ishlarni tashkil etishning shakli va mazmuni.

Nazariy va seminar mashg'ulotlari o'tish davomida talabalarni ijodiy jarayonga yo'naltirish, ularni tahlil qilish, mustaqil ishlashga o'rgatish, mashqlar bajarish. Badiiy asarlarni estetik-g'oyaviy jihatdan tahlil qilish, klassik asarlar matni ustida ishlash, adabiy jarayonni kuzatib borish. Malakaviy amaliyotni o'tish chog'ida yangi texnika, jihozlar, keng ko'lamli ilmiy ish olib borishga qulay jarayonlar va texnologiyalarni o'rganish. Talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq holda fanning muayyan boblari va mavzularini chuqur o'rganish.

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda fanning muayyan xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalari bo'yicha fan boblari va mavzularni o'rganish;

- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;

- maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;

- talabalarning o'quv-ilmiy tadqiqot ishlarini bajarishi bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularini chuqur o'rganish;

- faol va muammoli o'qitish uslublari qo'llanadigan o'quv mashg'ulotlari.

V.1. MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARINI TAQSIMLANISHI	
1	Dars tahlilining maqsadi va vazifalari
2	Dars tiplari to'g'risida mashhur tarixchi metodistlari (A.A.Vagin, V.G.Karsev, S.V.Ivanov, M.L.Zinovev)ning fikrlari
3	Dars tiplarining klassifikatsiyasi
4	Zamonaviy tarix darslariga bo'lgan ilmiy-metodik va didaktik talablar
5	Kompetensiya tushunchasi va turlari
6	Konferensiyalarning tarixiy bilimlarni mustahkamlashdagi o'rni
7	Talabalar darslarini tahlil etish prinsiplari va bosqichlari
8	Tarix darsi samaradorligini oshirishning ilmiy-uslubiy va didaktik negizlari
9	Tarix darsining tashkiliy turlari va o'qituvchining tayyorgarligi
10	Tarix darslari samaradorligini oshirish usullari
11	Tarix darslari turlari va tuzilishi
12	Tarix darslarida milliy qadriyatlar va vatanparvarlik
13	Tarix ta'lim jarayonida mustaqil ta'limning o'rni
14	Tarix ta'limida an'anaviy o'qitishdan faol o'qitish usullariga o'tishda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining o'rni
15	Tarix ta'limida bosma matnlar bilan ishlash usuli
16	Tarix ta'limida kuzatish va tadqiqot usullarining ahamiyati
17	Tarix ta'limida texnika vositalaridan foydalanish usullari
18	Tarix ta'limida o'qituvchining jonli nutqi va uning ta'limtarbiyaviy ahamiyati
19	Tarix ta'limining amaliy usullari va tarix darsining turlari
20	Tarix ta'limining ko'rgazmali metodlari
21	Tarix tizimida mustaqil ishlash metodlari, ularning asosiy turlari va

	funksiyalari
22	Tarix tizimida sinfdan tashqari ishlashning ahamiyati
23	Tarix tizimida tarixiy bilimlarning roli
24	Tarix tizimida tarixiy-badiiy adabiyotlardan foydalanish usullari
25	Tarix tizimida o'qituvchining jonli nutqi va uning ahamiyati
26	Tarix tizimida xaritalardan foydalanish usullari
27	Tarix o'qitish jarayonining tarkibiy qismlari
